| Oraliq nazorat | Og'zaki | 30 | 1 | 30 |
| Jami: | | 30 | 1 | 30 |
| Yakuniy nazorat | 1. Yozma ish. (Yakuniy nazorat shakli fakul'tet kengashi bilan kelishib, rektor buyrug'I bilan tasdiqlanadi) | 30 | 1 | 30 |
| Jami: | | 100 | 21 | 100 |

III. O'quv qo'llanma adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Baburin S.N. Rossiyskiy put: stanovlenie rossiyskoy geopolitiki nakanune XXI v. — M.: ANKO, 1995.

| № | Muallif | Adabiyot nomi | Adabiyot turi | Nashr yili | ARMdagi soni | Adabiyotning ARMdagi shifri | Adabiyotning ARMdagi inventar raqami |
|---|---------------|---------------------------------|-----------------|---|--------------|-----------------------------|--------------------------------------|
| 1 | Karimov I | Noosfera, geosiyosat va mafkura | O‘quv qo‘llanma | T.: STIBO M, 2008. | 10 | 66.3(5 uz) K-21 | U-6841 |
| 2 | Otamurotov S. | Globalashuv va millat. | O‘quv qo‘llanma | T-2008 | | Elektron variant | Elektron variant |
| 3 | Nartov I.A. | Geopolitika. | O‘quv qo‘llanma | M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2004 | 10 | 66.4 YA 73 | 918725 |
| 4 | Karimov, I | Noosfera: Geosiyosat va mafkura | O‘quv qo‘llanma | O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti 2007 | 10 | 66.3(5 o‘z) | K 25 |

2. Bjezinskiy 3. Velikaya shaxmatnaya doska. — M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 1998

3. Gadjiev K.S. Vvedenie v geopolitiku. Moskva Logos, 1998g

4. Gadjiev K.E. Geopolitika. M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1997

5. German K. Politicheskie pereruptuya pri dvijenii k globalnomu informatsionnomu obshchestvu // Sotsiologicheskie issledovaniya. 1998. 2. S. 12-25.

5. Gumilev L.N. Etnogenez i biosfera Zemli. Fond «Mir L.N. Gumileva». — M.: Izd-vo «Institut DIDIK», 1997.

6. Gumilev L.N. Ritmy Yevrazii. — M.: EKOPROS, 1993

7. Davidova R.I., Kochkina V.G. Osnovi geopolitiki. N. Novgorod, 2001g

8. Danilevskiy N. Rossiya i Yevropa. // «Klassika geopolitiki, XIX vek». — M.: OOO «Izdatelstvo AST», 2003.

9. Danilevskiy N.Ya. Rossiya i. Yevropa. — Spb.: Glagol, 1995.

10. Dugin A. Osnovy geopolitiki. — M.: «Arktogeya», 2000.
11. Yevropa i globalnye problemy sovremennosti Po materialam 44 sessii Generalnoy assamblei OON. M. RAN INION, 1992. 207 str
12. Zyuganov G.A. Geografiya pobedy. Osnovy rossiyskoy geopolitiki. — M., 1998 (bez ukaz. izd.).
13. Ivanov N. Globalizatsiya i problema optimalnoy strategii razvitiya. //Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye otnosheniya. 2000g. 2 str. 15- 3 str.12-18.
14. Kolosov V. A., Mironenko N. S. Geopolitika i politicheskaya geografiya: uchebnik dlya studentov vuzov. — M.: «Aspekt-Press», 2001.
15. Nartov N.A. Geopolitika. Uchebnik. M.: YuNITI, 2000
16. Otamurotov S. Globallashuv va millat. T-2008
17. Pozdnyakov Ye.A. Geopolitika. — M.: Progress. Kul'tura, 1995.
18. Savitskiy L.N. Kontinent Yevraziya. — M.: Agraf, 1997.
19. Sorokin K.E. Geopolitika sovremennosti i geostrategiya Rossii. — M.: Rossien, 1996.
20. Trevogi mira. Sotsialnye posledstviya globalizatsii mirovyykh protsessov. YuNRISD. Jeneva, 1995. C. 10-11.
21. Xo'janov B.A. Geosiyosat va mafkuraviy jarayonlar. T.: STIBOM, 2002.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.tdpu.uz
2. www.Ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.ma'naviyat.uz
5. www.bilim.uz

Kafedra mudiri:



f.f.n. M.A. Sobirova.

Ma'ruza
mashg'ulotlari uchun
ta'lim texnologiyalari
ishlanmasi

mavzu

« GEOSIYOSAT ASOSLARI » FANI PREDMETI,
OB'EKTI VA MANBALARI
MANBALARI

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| <i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg'ulot shakli</i> | Ma'ruza |
| <i>Ma'ruza rejasi</i> | <ul style="list-style-type: none"> • «Geosiyosat asoslari» fan va siyosiy amaliyot sifatida. • «Geosiyosat» tushunchasi va uning asosiy aspektlari. «Geosiyosat asoslari» fanning predmeti va tadqiqot doirasi. • «Geosiyosat asoslari» ning asosiy manbalair. |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga dunyoning geosiyosiy manzarasi, geosiyosatni mazmun-mohiyati, fan sifatida shakllanishi, uning manbalari, tadqiqot doirasi, yoshlar tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyati, jamiyat hayotida bajaridigan vazifalari xususida ma'lumot berish. | |
| <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalarga geopolitikani mazmun-mohiyati, fan sifatida shakllanishi, uning manbalari haqida tushuncha berish • tadqiqot doirasi, uning vazifalari haqida ma'lumot berish | <p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar geosiyosatni mazmun-mohiyati, fan sifatida shakllanishi, uning manbalari, tadqiqot doirasi xususida ma'lumotga ega bo'lishadi. • Talabalar dunyoning geosiyosiy manzarasi hzusida, geosiyosiy manfaatlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishadi. |
| <i>Ta'lim berish usullari</i> | “Tarmoqlash”, “Qanday”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalarni qo'llagan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta'lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta'lim berish vositalari</i> | Ma'ruza matni, o'quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta'lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki nazorat: savol-javob |

**«GEOSIYOSAT ASOSLARI» TUSHUNCHASI, PREDMETI, OB’EKTI VA MANBALARI»
MA’RUZA MASHG’ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI**

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|---|--|
| | <i>O’qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va o’quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg’ulotni o’tkazish shaklini e’lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo’yicha ma’ruza qiladi (2-ilova) Ma’ruza bo’yicha “Tarmoqlash” usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Nega Mustaqillik yillari geosiyosiy jarayonlar rivojini o’rganish zaruriyati va ahamiyatini oshirib yubordi?(3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo’yicha ma’ruza qiladi (4-ilova). Ma’ruza bo’yicha «Qanday» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Mustaqillikni mustahkamlashda geosiyosiy munosabatlarni namoyon bo’lish jarayoni qanday xususiyatlariga ega? (5-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Geosiyosiy munosabatlar xususiyatlarini aniqlashni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (6-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o’tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to’g’ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo’yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning olgan baholarini e’lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3. O’z-o’zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova) | Javob yozadi |
| | 3.4.Navbatdagi mashg’ulotda ko’riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Insert” usulidan foydalanib jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko’rishlarini so’raydi (8-ilova) | “Insert” usulida jadvalni to’ldiradilar |

MAVZU: «« Geosiyosat asoslari» tushunchasi, predmeti, ob'ekti va manbalari»

Reja.

1. « Geosiyosat asoslari» tushunchasi, predmeti
2. « Geosiyosat asoslari» ob'ekti, vazifalari va manbalari .

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga dunyoning geosiyosiy manzarasi, Geosiyosatni mazmun-mohiyati, fan sifatida shakllanishi, uning manbalari, tadqiqot doirasi xususida ma'lumot berish

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar dunyoning geosiyosiy manzarasi, geosiyosatni mazmun-mohiyati, fan sifatida shakllanishi, uning manbalari, tadqiqot doirasi xususida ma'lumotga ega bo'lishadi

2-ilova

MAVZUNING 1-MASALASI. « GEOSIYOSAT ASOSLARI» TUSHUNCHASI, PREDMETI

Geosiyosat asoslari fan sifatida XX asr boshlariga kelib paydo bo'ldi. Uning shakllanish jarayoni jahondagi iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning keskin rivojlanishi davriga to'g'ri keldi. Nafaqat ilmiy doirada, balki siyosatshunolar o'rtasida ham «*geosiyosat*» tushunchasiga nisbatan yagona bir ta'rif yo'q. Mavjud ta'riflar u yoki bu darajada bir-birini to'ldirsada, ma'lum jihatdan bir-biriga qarama-qarshi hamdir. O'z navbatida geosiyosatning ob'ekti va sub'ekti haqida ham turlicha qarashlar bor. Albatta, bildirilgan fikrlarga salbiy munosabat bildirish kerak emas, balki ularga geosiyosat ob'ektining murakkabligi bilan izohlanadi. Umuman olganda geopolitika hukmronlik vositalari va ubilan bog'liq bilimlar mohiyati to'g'risida fan sohasi sifatida izohlanadi. Frantso'z geopolitiki Mishel Fushe ingliz va nemis geosiyosati xususida fikr yuritib jahonda iqtisodiy va siyosiy hukmronlikni qo'lga kiritish ustida kurash natijasidagi ehtiyoj natijasida yo'zaga kelganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha geopolitika faqatgina uslub hisoblanmasdan, ayni damda tasavvur va amaliyot ham hisoblanadi. Negaki dastlabki geosiyosatchilar sifatida turli davrlarda turli hukmdorlar maydonga chiqishgan. Geosiyosat asoslarini tasavvur sifatida shu ma'noda e'tirof etiladiki qator geosiyosiy maktablar ilgari surgan nazariy muhokamalar dunyo haqidagi tasavvurlarni in'kos ettirgan, u yoki bu davlatning olibborayotgan siyosatini belgilab bergan. Geosiyosat asoslari metod sifatida ilmiy, pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar mohiyatini ifoda etgan.

To'g'ri, XX asrning 90-yillarigacha kommunistik mafkura geosiyosatni imperialistik ekspansiyani asoslash uchun geografik dalil va omillardan (mamlakatning hududi, joylashuvi va b.) foydalanuvchi siyosiy kontseptsiya deb, uning asosini irqchilik, mal'usushilik, sotsial-darvinizm bilan bog'lab ta'riflash orqali salbiy baholab kelgan. Biroq, keyingi o'n yil ichidagi o'zgarishlar geosiyosatga nisbatan yangicha yondashuvlarni yo'zaga chiqardi va geosiyosat sobiq sovet fani uqtirib kelgan g'oyalarning batamom aksi ekanligini ko'rsatdi.

"*Geosiyosat*" (" *Geosiyosat asoslari*") so'zi garchi yunon tilidagi "*geo*" (er) va "*politicos*" (davlatni boshqarish san'ati) jumalaridan olingan bo'lsada, o'zbek siyosiy lug'atiga nemis tilidagi "*geopolitik*" so'zidan kirib kelgan desak to'g'ri bo'lar. Qolaversa, bahs etayotganimiz geosiyosat nazariyasi ham avvalo nemis geosiyosiy maktabida tugal shakllanganligi barchaga ma'lum.

Geosiyosat asoslari davlatga turg'un, statik xoldagi hodisa sifatida emas, balki dinamik – o'zgaruvchan hodisa sifatida qaraydi. «Geosiyosat» so'zini asarlarida ishlatmasada, geosiyosat fanining «otasi» deb nemis olimi *Fridrix Rattselni* aytish mumkin. Olim siyosiy geografiyadan bahs etadi va o'zining 1897 yilda chop etilgan asosiy ishini ham «Siyosiy geografiya» («*Politische Geographie*») deb nomlagan. Garchi F.Rattsel siyosiy geografiya haqida sub'ektiv fikrlarini o'rta tashlasada, uning mulohazalari bevosita geosiyosiy ahamiyatga molik edi. Jumladan, olim davlatda geografik omillarning ustuvorligini va ularning o'zgarimasligi borasidagi fikrlarni yoqlamaydi. Uningcha, davlat doimo jo'shqinlikda hayot kechiruvchi «tirik organizmdir». F.Rattsel fikricha,

geosiyosat siyosiy geografiyadan farqli tarzda, davlatning joylashishi, uning iqlimi va shakllari bilan birlamchi darajada qiziqmaydi.


Ilmiy doirada birinchi bo'lib "geosiyosat" atamasini shved olimi *Rudolf CHellen* (1864-1922) o'zining «Davlat hayotning bir shakli sifatida» («*Der Staat als Lebensform*», 1916) nomli asarida qo'llagan. Olim geosiyosatga quyidagicha ta'rif beradi, ya'ni «geosiyosat – bu borliqdagi davlatlarni geografik organizm, yoki makondagi fenomen sifatida o'rganuvchi fandır». Shuningdek, geosiyosat "... makonni fundamental asosda tadqiq qilish bo'lib, tadqiqot Er va undagi foydali qazilmalar bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida imperiyalarning tashkil topishini, mamlakatlarning yo'zaga kelishini va davlatlar hududlarini o'rganish demakdir".

Geosiyosatga o'ziga xos ta'rif o'z vaqtida «*Zeitschrift fuer Geopolitik*» nomli nemischa jurnalda berilgan: Geosiyosat er va siyosiy jarayonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fandır. U geografik fundamentga ega. Shuningdek, geosiyosat borliqdagi siyosiy organizmlar va ularning to'zilishini o'rganuvchi fan – siyosiy geografiyaga asoslanadi. Geosiyosatning maqsadi siyosiy harakatlarni kerakli vositalar bilan ta'minlash va umuman siyosiy hayotga yo'nalishni ko'rsatadi. Bu jihatdan geosiyosatni amaliy siyosatni boshqarish haqidagi fan deyish mumkin. Geosiyosat – davlatning geografik aqlidir. Rus geosiyosatchisi N.Nartov fikricha geopolitika oraliq fan bo'lib maxsus o'ziga xos tadqiqot maydoniga emas. Siyosatga, siyosiy hodisalarga ko'proq e'tiborini qaratsada, ularni geografik omillar, aspektlar asosida umumlashtiradi.

3-ilova

“Tarmoqlash” texnologiyasi

SAVOL: Dunyoning geosiyosiy manzarasi o'rganish *zaruriyati va ahamiyati nimalardan iborat?*



MAVZUNING 2-MASALASI. Geosiyosat fan sifatida jamiyat bilan bevosita bog‘langandir. U real hayotdagi voqea-hodisalar va jarayonlarning o‘zaro aloqadorligini va ularning bir-biriga bog‘liqligini ifodalovchi qonuniyatlarni o‘ziga qamrab olgan. Biroq, geosiyosat borliqdagi jarayonlarni o‘zida aks ettiribgina qolmay, ularga bog‘liqli tarzda jamiyatda muayyan funktsiyalarni ham bajaradi.

Geosiyosatning asosiy funktsiyalari:


- gnoseologik funktsiya;
- prognoz qilish funktsiyasi;
- boshqaruv funktsiyasi;
- mafkuraviy funktsiya.

To‘g‘ri, qayd qilingan funktsiyalar boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlarga ham xos bo‘lishi mumkin. Biroq mazkur funktsiyalar geosiyosat fanida o‘ziga xos afzalliklarga ega.

1-o‘quv topshiriq

«Qanday» organayzerini to‘ldiring

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



2-o'quv topshiriq
FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

| Savol | Dunyoning geosiyosiy manzarasini yoritishda geosiyosat fanining tutgan o'rni |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

7-ilova

Umumlashtiruvchi savollar:

1. «Geosiyosat asoslari» tushunchasi, predmeti, ob'ekti va manbalari.
2. «Geosiyosat asoslari» fan va siyosiy amaliyot sifatida.
3. «Geosiyosat asoslari» ning fan sifatida shakllanishi.
4. «Geosiyosat asoslari» tushunchasi va uning asosiy aspektlari.
5. Fanning predmeti va tadqiqot doirasi.

8-ilova

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |

MAVZU: “« Geosiyosat asoslari» tushunchasi, predmeti, ob’ekti va manbalari”

Reja.

1. « Geosiyosat asoslari» tushunchasi, predmeti
2. « Geosiyosat asoslari» ob’ekti, vazifalari va manbalari.

Keyingi o‘n yilliklarda « Geosiyosat asoslari» atamasi ommabop atamaga aylandi. Frantso‘z olimi Iv Lakostning e’tirof etishicha geopolitika tamasi 1980-yillardan boshlab, ayniqsa «sovuq urush» davri tugaganidan keyin nixoyatda keng qo‘llanila boshlandi. Bugungi kunda bu atama barcha davlatlarning OAV larida jurnalistlar nafaqat Evropa davlatlari o‘rtasidagi hududiy raqobatchilikni, ayni damda unga qarshi jamoatchilik fikridagi e’tirozlarni ham ko‘tarib chiqishmoqda. Ba’zan esa geopolitika atamasi turli hodisalarga, jumladan hech qanday aloqapsi yo‘q hodisalarga nisbatan ham ishlatilmoqda. «The Economist» jurnalida e’tirof etilishicha geopolitika tamasi fundamental hodisa hisoblansada, uni shunday bir yorliqqa qiyoslash mumkinki, bu yorliqni istalgan hodisaga ilib quyish mumkin. 2-jahon urushi va uning asoratlarini tugatish davrida geopolitika doirasidagi izlanishlar bir oz susaysada butunlay to‘xtab qolmadi va mumkin ham emas edi. Negaki davlatlar bor ekan, ular o‘rtasida munosabatlar bor ekan, ularning manfaatlari mavjud ekan geopolitika ham mavjud bo‘ladi. Mustamlakachilik tizimi, jahon urushlari va undan keyingi «sovuq urush» davri salbiy jihatlariga ba’zan geopolitik jarayonlar sabab qilib ko‘rsatildi. XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib geopolitika o‘tib ketgan «patologiya» dan xalos bo‘ldi. O‘z navbatida tabiiy savol tug‘iladi: tarix va geografiya o‘rtasida siqilib qolgan geopolitika yashash huquqiga ega bo‘ladimi?

O‘zida iqtisodiy va siyosiy geografiyani umumlashtirgan geopolitika harbiy yoki diplomatik tarixga shunchaki qo‘shilgan oddiy hodisa emas. Geosiyosiy uslub ularni o‘zlashtirgan xolda namoyon bo‘ladi.

Alohida tadqiqot, mashg‘ulot sohasi sohasi sifatida, dunyoga nazar tashlash uslubi sifatida geopolitikaning prespektivlari quyidagi holatlar bilan o‘z dolzarbligini namoyon qiladi:

Birinchidan, jamiyatning demokratik siyosiy madaniyatini shakllantirishda, aholi tafakkurini imperiyaga xos tafakkur tarzidan xalos bo‘lishlarida, radikal geosiyosiy hatti-harakatlar mohiyatini anglab etishda geopolitikaning asoslarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, geosiyosiy paradigmalar, alohida faoliyat turi sifatidagi geopolitika shakllanayotgan ko‘p qutbli dunyoda, jahon hamjamiyatida munosb o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi;

Uchinchidan, endigina shakllanayotgan geopolitika fani oldida G‘arb geopolitikasi erishgan yutuqlarni o‘zlashtirish, uning asosiy tendentsiyalarini, hozirgi zamon geosiyosiy jarayonlarining rivojlanish xusiyatlarini o‘rganish kabi masalalar turibdiki ularning echimi O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda, jahon hamjamiyatida tutgan maqomini belgilab olishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Geosiyosat asoslari fan sifatida XX asr boshlariga kelib paydo bo‘ldi. Uning shakllanish jarayoni jahondagi iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning keskin rivojlanishi davriga to‘g‘ri keldi. Nafaqat ilmiy doirada, balki siyosatshunolar o‘rtasida ham «*geosiyosat*» tushunchasiga nisbatan yagona bir ta’rif yo‘q. Mavjud ta’riflar u yoki bu darajada bir-birini to‘ldirsada, ma’lum jihatdan bir-biriga qarama-qarshi hamdir. O‘z navbatida geosiyosatning ob’ekti va sub’ekti haqida ham turlicha qarashlar bor. Albatta, bildirilgan fikrlarga salbiy munosabat bildirish kerak emas, balki ularga geosiyosat ob’ekti murakkabligi bilan izohlanadi. Umuman olganda geopolitika hukmronlik vositalari va ubilan bog‘liq bilimlar mohiyati to‘g‘risida fan sohasi sifatida izohlanadi. Frantso‘z geopolitiki Mishel Fushe ingliz va nemis geosiyosati xususida fikr yuritib jahonda iqtisodiy va siyosiy hukmronlikni qo‘lga kiritish ustida kurash natijasidagi ehtiyoj natijasida yo‘zaga kelganligini ta’kidlaydi. Uning fikricha geopolitika faqatgina uslub hisoblanmasdan, ayni damda tasavvur va amaliyot ham hisoblanadi. Negaki dastlabki geosiyosatchilar sifatida turli davrlarda turli hukmdorlar maydonga chiqishgan. Geosiyosat asoslarini tasavvur sifatida shu ma’noda e’tirof etiladiki qator geosiyosiy maktablar ilgari surgan nazariy muhokamalar dunyo haqidagi tasavvurlarni in’kos ettirgan, u yoki bu davlatning olibborayotgan siyosatini belgilab bergan. Geosiyosat asoslari metod sifatida ilmiy, pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar mohiyatini ifoda etgan.

To'g'ri, XX asrning 90-yillarigacha kommunistik mafkura geosiyosatni imperialistik ekspansiyani asoslash uchun geografik dalil va omillardan (mamlakatning hududi, joylashuvi va b.) foydalanuvchi siyosiy kontseptsiya deb, uning asosini irqchilik, mal'tuschilik, sotsial-darvinizm bilan bog'lab ta'riflash orqali salbiy baholab kelgan. Biroq, keyingi o'n yil ichidagi o'zgarishlar geosiyosatga nisbatan yangicha yondashuvlarni yo'zaga chiqardi va geosiyosat sobiq sovet fani uqtirib kelgan g'oyalarning batamom aksi ekanligini ko'rsatdi.

"Geosiyosat" (" *Geosiyosat asoslari*") so'zi garchi yunon tilidagi "geo" (er) va "politicos" (davlatni boshqarish san'ati) jumlaridan olingan bo'lsada, o'zbek siyosiy lug'atiga nemis tilidagi "geopolitik" so'zidan kirib kelgan desak to'g'ri bo'lar. Qolaversa, bahs etayotganimiz geosiyosat nazariyasi ham avvalo nemis geosiyosiy maktabida tugal shakllanganligi barchaga ma'lum.

Geosiyosat asoslari davlatga turg'un, statik xoldagi hodisa sifatida emas, balki dinamik – o'zgaruvchan hodisa sifatida qaraydi. «Geosiyosat» so'zini asarlarida ishlatmasada, geosiyosat fanining «otasi» deb nemis olimi *Fridrix Rattselni* aytish mumkin. Olim siyosiy geografiyadan bahs etadi va o'zining 1897 yilda chop etilgan asosiy ishini ham «Siyosiy geografiya» («Politische Geographie») deb nomlagan. Garchi F.Rattsel'siyosiy geografiya haqida sub'ektiv fikrlarini o'rta tashlasada, uning mulohazalari bevosita geosiyosiy ahamiyatga molik edi. Jumladan, olim davlatda geografik omillarning ustuvorligini va ularning o'zgaruvchanligi borasidagi fikrlarni yoqlamaydi. Uningcha, davlat doimo jo'shqinlikda hayot kechiruvchi «tirik organizmdir». F.Rattsel's fikricha, geosiyosat siyosiy geografiyadan farqli tarzda, davlatning joylashishi, uning iqlimi va shakllari bilan birlamchi darajada qiziqmaydi.

Ilmiy doirada birinchi bo'lib "geosiyosat" atamasini shved olimi *Rudolf CHellen* (1864-1922) o'zining «Davlat hayotning bir shakli sifatida» («*Der Staat als Lebensform*», 1916) nomli asarida qo'llagan. Olim geosiyosatga quyidagicha ta'rif beradi, ya'ni «geosiyosat – bu borliqdagi davlatlarni geografik organizm, yoki makondagi fenomen sifatida o'rganuvchi fandır». Shuningdek, geosiyosat "... makonni fundamental asosda tadqiq qilish bo'lib, tadqiqot Er va undagi foydali qazilmalar bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida imperiyalarning tashkil topishini, mamlakatlarning yo'zaga kelishini va davlatlar hududlarini o'rganish demakdir".¹

Geosiyosatga o'ziga xos ta'rif o'z vaqtida «*Zeitschrift fuer Geopolitik*» nomli nemischa jurnalda berilgan: Geosiyosat er va siyosiy jarayonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fandır. U geografik fundamentga ega. Shuningdek, geosiyosat borliqdagi siyosiy organizmlar va ularning to'zilishini o'rganuvchi fan – siyosiy geografiyaga asoslanadi. Geosiyosatning maqsadi siyosiy harakatlarni kerakli vositalar bilan ta'minlash va umuman siyosiy hayotga yo'nalishni ko'rsatadi. Bu jihatdan geosiyosatni amaliy siyosatni boshqarish haqidagi fan deyish mumkin. Geosiyosat – davlatning geografik aqlidir.² Rus geosiyosatchisi N.Nartov fikricha geopolitika oraliq fan bo'lib maxsus o'ziga xos tadqiqot maydoniga emas. Siyosatga, siyosiy hodisalarga ko'proq e'tiborini qaratsada, ularni geografik omillar, aspektlar asosida umumlashtiradi. O'z navbatida geopolitika davlatning ichki, tashqi siyosatini tushuntirishda, asoslab berishda bir qator geografik omillardan keng foydalanadi: chegara tafsili, tabiiy va qazilmalar resurslarga boyligi, u joylashgan orol yoki quruqlikning qulayligi, iqlimi, re'lyefi va boshqalar. O'zoq yillar davomida geopolitikada hal etuvchi omil metropoliyaning geografik makonda kengayib borishi asosiy ahamiyat kasb etib kelgan edi. Vaqt o'tishi bilan bu omil o'z ahamiyatini davlatlar o'rtasidagi hamkorlikka, tenglikka asoslangan o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarga bo'shatib bera boshladi.

¹ Геополитические тетради // Элементы – 1993. №3. с.17

² Нартов Н.А. Геополитика (учебник). ЮНИТИ. М., с.9

| | |
|--------------|---|
| mavzu | « GEOSIYOSAT ASOSLARI » NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKTSIYALARI |
|--------------|---|

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|--|
| <i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg'ulot shakli</i> | Ma'ruza |
| <i>Ma'ruza rejasi</i> | <ol style="list-style-type: none"> 1. Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari. 2. Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari. 3. Geosiyosatning asosiy funktsiyalari. |
| <p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma'lumot berish.</p> | |
| <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> Talabalarga Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari haqida tushuncha berish</p> | <p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma'lumotga ega bo'lishadi. |
| <i>Ta'lim berish usullari</i> | “Tarmoqlash”, “Qanday”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalarni qo'llagan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta'lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta'lim berish vositalari</i> | Ma'ruza matni, o'quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta'lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki nazorat: savol-javob |

**“GEOSIYOSAT ASOSLARI” NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA
FUNKTSIYALARI
MA’RUZA MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI**

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|---|---|--|
| | <i>O‘qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va o’quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg’ulotni o’tkazish shaklini e’lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo’yicha ma’ruza qiladi Ma’ruza bo’yicha “Tarmoqlash” usulidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi(2-ilova) 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo’yicha ma’ruza qiladi Ma’ruza bo’yicha «Qanday» usulidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi (3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Galdagi vazifa «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (4-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o’tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to’g’ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs- munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo’yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning olgan baholarini e’lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3.Navbatdagi mashg’ulotda ko’riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Insert” usulidan foydalanib jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko’rishlarini so’raydi (8-ilova) | “Insert” usulida jadvalni to’ldiradilar |

MAVZU: GEOSIYOSAT ASOSLARI » NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKTSIYALARI

Reja.


1. Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari.
2. Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari.
3. Geosiyosatning asosiy funktsiyalari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma'lumot berish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma'lumotga ega bo'lishadi


“Tarmoqlash” texnologiyasi

SAVOL: « GEOSIYOSAT ASOSLARI » NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKTSIYALARI nimalardan iborat?



1-o'quv topshiriq**«Qanday» organayzerini to'ldiring**

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



4-ilova

2-o'quv topshiriq
FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

| Savol | Geografik tizimlar rivoji, amal kilishi bilan bog'liq qonuniyatlar |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

5-ilova

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |
| 7. | | | | |

MAVZU: GEOSIYOSAT ASOSLARI » NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKTSIYALARI

Reja.

1. Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari.

2. Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari.

3. Geosiyosatning asosiy funktsiyalari.

Ko'plab tadqiqotchilar geosiyosatga davlatning geostrategik qudratiga ta'sir o'tkazuvchi geografik, tarixiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillarni o'rganuvchi fan sifatida qarashadi. Rus geosiyosatchisi V.Dergachev geopolitika va siyosiy geografiyani o'zaro taqqoslar ekan siyosiy geografiya atrof-muhim, makondagi imkoniyatlar, xususiyatlarni siyosiy jarayonlar rivojiga ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida olib qaraydi. K.Gadjiev fikricha geopolitika jahon hamjamiyatining hozirgi holati, evolyutsiyasi, faoliyati, kundalk turmush tarzi tamoyillari va qonuniyatlari, global va strategik yo'nalishlari, ob'ekti va tarkibini o'rganuvchi fan hisoblanadi. E.Pozdnyakov fikricha geopolitikaning asosiy e'tiborini davlat o'zining siyosiy, harbiy, iqtisodiy manfaatlarini hal etishda, shunga qaratilgan siyosatida geografik omillarga tayanib ish yuritishiga qaratishi lozim. Yu.Tixonravov fikricha geopolitikani siyosatni geografik muhit tomonidan yaratilgan – joylashgan atrof-makon, iqlim, landshaft, foydali qazilmalar, ekologiya, demografiya, va sh.k siyosiy bo'lmagan tizim o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sohasi sifatida olib qaraydi. Ba'zilari esa

geosiyosatning jamiyatdagi, ma'lum bir mintaqa yoki davlatlardagi harbiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillarni tadqiq etuvchi fan ekanligini isbotlashga urinishadi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek SSSR da 80-yillarning oxirlarigacha geopolitikaga reaksion, g'ayriilmiy, imperalistik davlatlarning mustamlakchilik siyosatini oqlaydigan, ularning turli geografik makonlar ustidan hukmronligini ta'min etishga xizmat qiladigan fan sifatida qaralgan. Sovet hukumatining ushbu fanga bunday munosabatda bo'lish sabablari nimada: birinchidan, geopolitikaning asosiy g'oyalari, nazariyalari, qoidalari marksizm-leninizm g'oyalari, jamiyat rivojiga sinfiylik nuqtai-nazaridan qarash kabi nazariyalarga mutlaqo zid edi; ikkinchidan, fashistlar agreessiyasi natijasida million-million insonlar qirilib ketgan. «Buyuk Germaniya», «fashistlar uchun hududiy kenglik» kabi g'oyalarni da'vo qilgan fashizm mafkurasini oqlagan nemis geosiyosati badnom etilgan edi; uchinchidan, Sovet davlatining ichki va tashqi zo'rvonlik siyosati mohiyati fosh bo'lib qolish ehtimolining yuqoriligi; to'rtinchidan, Sovet davlati tashqi siyosat olib borishda har bir mintaqadagi iqtisodiy, geografik, demografik omillardan kelib chiqib emas, balki ideologik omillardan kelib chiqib yondashgan edi. Ushbu xolatlar ayniqsa «sovuq urush» davrida geopolitikaga, uning ob'ektiga xolisona murojat etish imkonini bermadi. Natijada qator xatolarga yo'l qo'yildi. Shulardan oxirgisi Afg'onistonning ichki ishlariga aralashish bo'ldi. Lekin Sovet davlatining amaliyotida, maxsus ilmiy tekshirish institutlarda geosiyosat bilan bog'liq jarayonlar ko'zatildi. Sovet davlati hukm surgan butun davrda geopolitika uning ajralmas atributi bo'lib qoldi. I.Stalin tarixga XX asrning eng yirik geosiyosatchisi bo'lib kirdi. Shuningdek sovet davlatining keyingi davrlardagi tashqi siyosatida quyidagi hatti-harakatlar geosiyosiy nuqtai nazardan turib amalga oshirilgan: birinchidan, 2-jahon urushidan keyin SSSR chegaralarida ittifoqdosh, mute davlatlarning vujudga keltirilishi; ikkinchidan, tashqi siyosatda sovet siyosatini kuch ishlatish yo'li orqali amalga oshirishni tamin etuvchi «Brejnev doktrinasini» ning vujudga kelishi; uchinchidan, Varshava shartnomasi ishtirokchilaridan to'zilgan ittifoqchi qo'shinoarning 1968 yilda CHexoslovakiyaga akslinqilobni bostirish shiori ostida kiritilishi.

Umuman geosiyosatga nisbatan berilgan ta'riflarni shartli ravishda uchta asosiy qismga ajratish mumkin. Bular:

1 - yo'nalish: geografiya va siyosat o'rtasidagi munosabatlarga katta e'tibor beriladi. Bu yo'nalishdagilar geografiyaga birlamchi omil sifatida qarab, uning siyosatga ko'proq ta'sir etishini uqtirishadi;

2 - yo'nalish: muayyan mintaqa yoki jahonda hokimiyat uchun siyosiy kuch markazlarining o'zaro kurashlariga kengroq e'tibor beriladi. Bu yo'nalishdagilar asosan davlatlararo raqobatga urg'u berib, fanning umumbashariy xususiyatlaridan bahs etadi;

3 - yo'nalish: xalqaro maydonda hokimiyat uchun kurashni geografik asosda tadqiq qilgan va qilayotgan geosiyosatchilarning tadqiqotchilar fikrlari. Bu yo'nalishdagilar geosiyosiy kontseptsiyalarni davlatlar tashqi siyosatining ko'rinishi sifatida qabul qilishadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ikkinchi yo'nalishdagi tadqiqotchilar fikrlari uchun ushbu yo'nalishga oid olimlarning fikrlari genetik asos bo'lishi mumkin.

Qayd qilingan umumiy qarashlardan ko'rinib turibdiki, geosiyosat uslubiy va o'z ob'ekti jihatidan siyosiy geografiyadan farq qilsa-da, uning amaliyoti jamiyatdagi geografik omillar va siyosat bilan bevosita bog'langan. Aniqrog'i, geosiyosat o'z amaliyotida quyidagi ikki ko'rinishdagi geografik holatlarni, ya'ni *doimiy* va *o'zgaruvchan* geografik omillarni hisobga oladi.

Doimiy geografik omillarga davlat yoki mintaqaning hududiy joylashuvi, chegarasining shakli va ko'lami (nisbatan), iqlimi, reliefi, flora va faunasi va shu kabilar kiradi. O'zgaruvchan geografik omillar esa mintaqa yoki davlatning aholisi, foydali qazilmalari, siyosiy madaniyati va ijtimoiy to'zilishlarini nazarda tutadi.

Umuman borliqdagi asosiy geosiyosiy omillar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- siyosiy (davlatning siyosiy to'zilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, davlatdagi ijtimoiy qatlamlar, davlatning chegaralari va h.);
- geografik (borliqda joylashuv holati, tabiiy resurslari, fauna va flora dunyosi va h.);
- iqtisodiy (aholining turmush darajasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar qudrati va to'zilishi va h.);
- madaniy (milliy an'analar, madaniy qadriyatlar, fan va ta'lim taraqqiyoti darajasi va h.);
- demografik (aholi tarkibi va joylashuvi, aholi o'sish darajasi va h.);

- harbiy (qurolli kuchlarining qudrati va harbiy tayyorgarligi, harbiy mutaxassislarni tayyorlash darajasi va b.);
- ekologik (aholining davlatlar va mintaqalar tabiiy resurslarining chegaralanganligiga munosabati, xom-ashyo zahiralarning kamayishi va h.);

Geosiyosat o'z qamrovi jihatidan ko'pqirrali va juda kengdir. Zamonaviy geosiyosat mundarijasi jahon siyosati, hokimiyat muammosi va jamiyatdagi ustuvor mafkuralar omillari bilan bilvosita va bevosita bog'liq. Bu jihatdan geosiyosatga - *geosiyosat jamiyatdagi boshqaruv muammolarini tadqiq etadigan fan* deb ta'rif berish mumkin. Bundan tashqari, geosiyosat fan sifatida bir qator mustaqil fan va fan sohalarining xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Bular – geografiya, siyosatshunoslik, tarix, etnografiya, dinshunoslik, ekologiya, mafkuralar tarixi, sotsiologiya, harbiy bilimlar nazariyasi va amaliyoti, demografiya va h. Ko'rinib turibdiki, geosiyosat shunchaki bir fan emas, balki ko'plab fanlarga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan tarmoqlararo fan tizimidir.

Qayd qilingan mulohazalar asosida geosiyosatga quyidagi ta'rifni berish mumkin:

geosiyosat - *davlatning strategik qudratiga ta'sir etuvchi geografik, tarixiy, siyosiy va boshqa o'zaro bog'liq bo'lgan omillarni birgalikda ko'ruvchi va tadqiq etuvchi tarmoqlararo fandır.*

2. Geosiyosat ob'ekti va predmeti. Bugungi xalqaro munosabatlarda kechayotgan jarayonlarni o'rganish va ularni tahlil etishdagi nazariy-uslubiy yondashuvlar o'tgan davrlardagi yondashuvlardan ma'lum darajada farq qiladi. Negaki, zamonaviy ilmiy muhit jahon taraqqiyotining murakkab muammolarini o'zida jo qilgan "o'tish davri" bilan ro'baro' kelib turibdi. Uning ustiga "sovuq urush"dan keyin jahon siyosatiga ta'sirini ko'rsatayotgan geosiyosiy o'zgarishlar to'lqini yangi bir bosqichga ko'tarildi. Bir qator davlatlarda siyosiy to'zumlar tubdan o'zgardi; davlatlarning va ittifoqdosh davlatlarning geografik chegaralari yangidan shakllanib bu jarayon ma'lum ma'noda yana davom etmoqda; integratsiya jarayonlarini dezintegratsiya aloqalari qamrab olmoqda yoki aksincha. Umuman, xalqaro munosabatlar tizimi tez-tez o'zgarib turibdi.

Xalqaro munosabatlarda kechayotgan va yangidan shakllanayotgan bunday jarayonlarni tahlil etishda zamonaviy xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar nazariyasidagi nazariy-tahliliy yondashuvlar ham o'zgarib qilmog'ida. Bu jihatdan mavjud muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini topish uchun tabiiy ravishda geosiyosatga zarurat tug'ilmoqda. Chunki yuqorida qayd qilingan siyosiy jarayonlar va shu singari boshqa muammolar bevosita geosiyosat fanining ob'ekti va predmeti hisoblanadi.

Geosiyosat ob'ektida jahonning geosiyosiy xaritasi turishi birinchi navbatda, dunyoning ko'pqtubli dunyoga aylanishi bilan va xalqaro munosabatlarning yangi bir transformatsiya – davlatlarning o'z ta'sir doiralari uchun kurash bosqichiga ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, jamiyatda ko'pqirrali global dunyoviy siyosat tushunchasining shakllanishi bilan ham bog'liqdir. Mazkur masalalar geosiyosat ob'ektida yaxlit holatda turishi mumkin, biroq geosiyosat ularni tahliliy jihatdan o'rganishni bir qator bosqichlarda ko'radi. Masalan, zamonaviy geosiyosat dunyoning siyosiy xaritasida kechayotgan jarayonlarni umumbashariy, mintaqaviy va ma'lum bir davlatning o'zigagina daxldorligidan kelib chiqib tahlil etadi va tegishli xulosalarni chiqaradi.

| | |
|---------------|---|
| MAVZU: | KLASSIK GEOSIYOSATNING ASOSIY G`OYALARI VA TAMOYILLARI |
|---------------|---|

1.1. Ta`lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| <i>Mashg`ulot vaqti - 2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg`ulot shakli</i> | Ma`ruza |
| <i>Ma`ruza rejasi</i> | <ol style="list-style-type: none"> 1. Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari. 2. R.CHellen ta`limotida Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari. |
| <p><i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Talaba Talabalarga geosiyosatni rivojida katta rol o`ynagan olimlarning asarlari, ularda keltirilgan asosiy tamoyillar xususida tushuncha berish.</p> | |
| <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • F.Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalarini tahlil etib berish? • Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari. X.Makinder tomonidan jahon siyosiy tarixining original va inqilobiy g`oyasining ishlab chiqilishi– «Tarixning geografik o`zagi ekanligini asoslab berish? | <p><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari xususida bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishadi. • X.Makinder tomonidan jahon siyosiy tarixining original va inqilobiy g`oyasining ishlab chiqilishi, «Tarixning geografik o`zagi» sifatida geosiyosatning xusiyatlarini o`rganishadi. |
| <i>Ta`lim berish usullari</i> | “Archa”, “Nega”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalarni qo`llagan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta`lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta`lim berish vositalari</i> | Ma`ruza matni, o`quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta`lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og`zaki nazorat: savol-javob |

**“Klassik geosiyosatning asosiy g‘oyalari va tamoyillari” ma’ruza mashg‘ulotining
 TEXNOLOGIK XARITASI.**

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|--|--|
| | <i>O‘qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o’quv mashg‘ulotining maqsadi va o’quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg‘ulotni o’tkazish shaklini e’lon qiladi. | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo’yicha ma’ruza qiladi (2-ilova) Ma’ruza bo’yicha “Archa” texnologiyasidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: klassik geosiyosatning asosiy tamoyillari nimaldardan iborat? (3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo’yicha ma’ruza qiladi (4-ilova). Ma’ruza bo’yicha «NEGA» usulidan foydalangan xolda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: klassik geosiyosat vakillari ta’limotlaridagi asosiy masalalar nimalardan iborat bo’lgan? (5-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Klassik geosiyosatning asosiy tamoyillari nimaldardan iborat ekanini aniqlashni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (6-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o’tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to’g’ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo’yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning olgan baholarini e’lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3. O’z-o’zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova) | Javob yozadi |
| | 3.4.Navbatdagi mashg‘ulotda ko’riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Insert” usulidan foydalanib jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko’rishlarini so’raydi (8-ilova) | “Insert” usulida jadvalni to’ldiradilar |

MAVZU: “Klassik geosiyosatning asosiy g‘oyalari va tamoyillari”*Reja.*

1. Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari.
2. R.Chellen ta’limotida Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari. G‘oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta’siri.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga geopolitikani rivojida katta rol o‘ynagan olimlarning asarlari, ularda keltirilgan asosiy tamoyillar xususida tushuncha berish.

O‘quv faoliyatining natijasi: Talabalar Talabalarga geopolitikani rivojida katta rol o‘ynagan olimlarning asarlari, ularda keltirilgan asosiy tamoyillar xususida tushunchaga ega bo‘lishadi.

Mavzuning 1-masalasi. Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari.

Ratsel bir qator xorijiy davlatlarda bo‘lib, ular turmush tarzini zimdan o‘rganadi. Bu esa uning ilmiy dunyoqarashida etnologiyaga bo‘lgan qiziqishni orttiradi. Agar olim 1876 yildan boshlab Myunxen texnika institutida geografiyadan dars bergan bo‘lsa, 1886 yildan boshlab Layptsig universitetida talabalarga o‘z fanining sirlarini o‘rgatgan. F.Rattsel o‘zining shoh asari bo‘lmish – «Siyosiy geografiya» («Politische Geographie»)ni aynan Layptsig universitetida ishlab yurgan kezlari 1897 yilda chop etgan. F.Rattsel to umrining oxirigacha (1904) Layptsig universitetida ishlagan.

Mashhur asarlari: «Davlatlarning makoniy o‘rish qonunlari» (1896); «Siyosiy geografiya» (1896); «Dengiz xalqlar qudratining omili sifatida» (1900).


Fridrix Rattselni garchi "geosiyosat" atamasini asarlarida ishlatmasa ham, birinchilardan bo‘lib geosiyosiy uslubda fikr yuritganligi uchun geosiyosat fanining otasi desa bo‘ladi. U o‘z asarlarida siyosiy geografiyadan bahs etadi va bu boradagi asosiy ilmiy ishi ham "Politische Geographie" (1897) deb nomlanadi. Uning ta’kidlashicha, har qanday xalqning manfaatlari zamin ustida kechadi. Shu bois zaminda joylashgan ma’lum bir hududlar tarix harakatini ko‘rsatuvchi bosh vosita sanaladi. Davlatlar muayyan hududlar ko‘rinishida zaminda aks etadi. Zamin abadiy bo‘lishi mumkin, hududlar (davlatlarning) o‘zgarib turadi. "Davlatlar misoli tirik organizm" bo‘lib ularning o‘zagi "zamin asos"da bir - biri bilan tutashadi.³

Davlatlarning zaminda paydo bo‘lishi uchta asosiy omil bilan bog‘liq. Bular - hududiy relʼef, hududiy masshtab va muayyan turmush tarzga ega xalqlar. Shu asosda, ya’ni ob’ektiv geografik makon va sub’ektiv umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan davlat siyosati shakllanadi. "Me’yoriy asosdagi" davlat bo‘lish uchun, - deydi F.Rattsel, - avvalo davlatda geografik, demografik va etnomadaniy parametrlar o‘zaro uyg‘unlashmog‘i kerak".

³ Ratzel F. Politische Geographie. 1887. "Einleitung"

“ARCHA” texnologiyasi

SAVOL: 1. Klassik geosiyosatning asosiy tamoyillari xaqida nima *bilasiz?*
2, *Ratsel ta'limotida davlat va borliq masalalari qanday ifodalangan?*




MAVZUNING 2-MASALASI. R.CHellen ta'limotida Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari.G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri.

R.CHellen davlatning qudratini unda mavjud bo'lgan beshta jihat bilan bog'laydi, bular: hudud, xo'jalik, xalq, jamiyat va hokimiyat. Shundan kelib chiqib davlat haqidagi fanlar ham beshta bo'lishi kerak (5 ta neologizm - "neo"-yangi, "logos"-so'z (yunoncha), yangi so'z yoki ibora). Uningcha, bu atamalar bir vaqtning o'zida siyosatshunoslikning ham muhim bo'limlaridan sanaladi, ya'ni:

- **geosiyosat** ("davlatni kuch va borliqdagi geografik organizm sifatida o'rganish");
- **ekosiyosat** ("davlatlarni iqtisodiy kuch markazi sifatida o'rganish");
- **demosiyosat** ("davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarni, ularning turmush tarzini tadqiq qilish; F.Rattselning "Antropogeografiya" siga o'xshash);
- **sotsiosiyosat** ("davlatning ijtimoiy jihatlarini o'rganish");
- **kratosiyosat** ("davlatlarning hokimiyat va boshqaruv shakllarini va ularning davlatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan munosabati muammolarini o'rganish").

Olim ushbu yo'nalishlarni ham o'z tadqiqotlarida geosiyosatga parallel ravishda davom ettirsada, keng ilmiy doirada bu yo'nalishlar geosiyosat singari unchalik tan olinmadi. Shu bois uning mazkur yo'nalishlar bo'yicha qarashlari keyinchalik "borliqda geografik organizm sifatida mujassamlashgan davlatlar haqidagi fan" - geosiyosatga qo'shilib ketdi, desak ham bo'ladi.

1-o'quv topshiriq
«NEGA» organayzerini to'ldiring



2-o'quv topshiriq
FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

| Savol | Klassik geosiyosatning asosiy tamoyillari qaysi masalalarni o'ziga olgan? |
|---|---|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

Умумлаштирувчи саволлар:

1. F.Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari қанадй таҳлил этилган?
2. R.Chellen «Geopolitika» atamasining asoschisi дейилишига сабаб?
3. Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari нималардан иборат?
4. X.Makinder tomonidan ишлаб чиқилган jahon siyosiy tarixining original va inqilobiy g'oyasi?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |

MAVZU: “Klassik geosiyosatning asosiy g'oyalari va tamoyillari”*Reja.*

1. Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari.
2. R.Chellen ta'limotida Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari. G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri.

Ma'lumki, ulkan geografik makondagi siyosiy tashkilotlar (davlatlar) borasida bildirilgan fikrlar tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi (Gerodot, Fukidid, Strabon, Polibiy). Yangi davr geografik (kontinental, orol yoki qirg'oq bo'yida davlatlarning joylashishi, ularning hududi, qirg'oqbo'yi chegaralarining o'zunligi, davlatda kommunikatsiya imkoniyatlari, landshaft va iqlimi) va demografik omillarning xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotiga nechog'li ta'sir ko'rsatishining daliliiy misollarini ko'rsatdi (G.Gerder, E.Reklyu, F.Rattsel' va b). Shunday tadqiqotlar samarasi o'laroq, XIX asr II-yarmi – XX asr boshlariga kelib keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy fanlar qa'ridan geosiyosat alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Aytish joyizki, klassik geosiyosat deganimizda ana shu davrdan boshlab ijod qilgan va geosiyosatning tadrijiy rivojiga u yoki bu darajada ta'sir etgan tadqiqotchilar qarashlari nazarda tutilmoqda. Jumladan, nemis olimi **F.Rattsel'** (1844-1904), shved davlatshunosi **R.Chellen** (1864-1922), amerikalik admiral **A.Mexen** (1840-1914), ingliz geograf nazariyotchisi **X.Makkinder** (1861-1947), nemis olimi **K.Xausxofer** (1869-1946), amerikalik (asli golondiyalik) **N.Spikmen** (1893-1943) va rus iqtisodchi olimi **P.N.Savitskiy** (1895-1968)lar eng mashhur klassik geosiyosatshunoslar hisoblanishadi.

Ular bugungi geosiyosatda ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'ziga xos munozaralarga sabab bo'layotgan quyidagi kontseptsiyalar va nazariy kategoriyalarni o'z vaqtida o'rta tashlaganlar:

- quruqlik va dengiz «hukmdor»lari o'rtasida doimiy qarama-qarshilik bo'lishi g'oyasi;

- «Buyuk quruqlik» nazariyasi (Evropa, Osiyo va Afrika mintaqalarining birgalikdagi maydoni nazarda tutilmoqda);
- insoniyat tarixiga daxldor makonlarga ega bo'lgan markaz – Heartland muammosi;
- jahon siyosatida strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish – rimland masalasi;
- etakchi xorijiy davlatlarning geosiyosiy ittifoqchiligini nazariy asoslash;
- davlatlarning strategik xom-ashyo resurslariga egaligi, uning davlat, mintaq va global geosiyosiy munosabatlardagi o'rni va b.

1. **Fridrix Rattselb – davlat va borliq.** F.Rattselb 1844 yil Karlsrueda tug'ilgan. Yoshligidanoq unda tabiiy fanlarga qiziqish katta bo'lgan. Shuning uchun u o'qish uchun Karlsruedagi politexnika universitetini tanlagan. Mazkur universitetda bo'lajak olim geologiya, paleontologiya va zoologiya fanlarini o'rganishga alohida e'tibor bergan.

F.Rattselb Haydelberg shahrida ta'lim olib yurgan kezlari professor Ernest Gekkel («ekologiya») atamasini birinchi bor ilmiy doirada qo'llagan olim)ga shogird bo'ladi. Olimning dunyoqarashi evolyutsionizm (evolyutsion rivojlanish haqidagi ta'limot) va darvinizmga asoslangan bo'lib, uning biologiyaga bo'lgan qiziqishlari bilan ham sug'orilgan edi.

1876 yil F.Rattselb «Xitoydagi emigratsion jarayonlar» mavzusida ilmiy ishini yoqlaydi. 1882 yil esa Shtuttgart shahrida o'zining asosiy g'oyalari – xalqlar va demografik evolyutsiyaning geografik omillar bilan bog'liqligi, mahalliy rel'efning xalqlar madaniy va siyosiy yuksalishiga ta'sir etishi va shu kabi boshqa mulohazalarini o'z ichiga olgan dastlabki fundamental tadqiqotlari majmuasi bo'lmish «Antropogeografiya» («Antropogeographie») asarini nashrdan chiqaradi.

Tadqiqotchi bir qator xorijiy davlatlarda bo'lib, ular turmush tarzini zimdan o'rganadi. Bu esa uning ilmiy dunyoqarashida etnologiyaga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Agar olim 1876 yildan boshlab Myunxen texnika institutida geografiyadan dars bergan bo'lsa, 1886 yildan boshlab Layptsig universitetida talabalarga o'z fanining sirlarini o'rgatgan. F.Rattselb o'zining shoh asari bo'lmish – «Siyosiy geografiya» («Politische Geographie»)ni aynan Layptsig universitetida ishlab yurgan kezlari 1897 yilda chop etgan. F.Rattselb to umrining oxirigacha (1904) Layptsig universitetida ishlagan.

Mashhur asarlari: «Davlatlarning makoniy o'sish qonunlari» (1896); «Siyosiy geografiya» (1896); «Dengiz xalqlar qudratining omili sifatida» (1900).

Fridrix Rattselni garchi "geosiyosat" atamasini asarlarida ishlatmasa ham, birinchilardan bo'lib geosiyosiy uslubda fikr yuritganligi uchun geosiyosat fanining otasi desa bo'ladi. U o'z asarlarida siyosiy geografiyadan bahs etadi va bu boradagi asosiy ilmiy ishi ham "Politische Geographie" (1897) deb nomlanadi. Uning ta'kidlashicha, har qanday xalqning manfaatlari zamin ustida kechadi. Shu bois zaminda joylashgan ma'lum bir hududlar tarix harakatini ko'rsatuvchi bosh vosita sanaladi. Davlatlar muayyan hududlar ko'rinishida zaminda aks etadi. Zamin abadiy bo'lishi mumkin, hududlar (davlatlarning) o'zgarib turadi. "Davlatlar misoli tirik organizm" bo'lib ularning o'zagi "zamin asos"da bir - biri bilan tutashadi.

Davlatlarning zaminda paydo bo'lishi uchta asosiy omil bilan bog'liq. Bular - hududiy rel'ef, hududiy masshtab va muayyan turmush tarzga ega xalqlar. Shu asosda, ya'ni ob'ektiv geografik makon va sub'ektiv umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan davlat siyosati shakllanadi. "Me'yoriy asosdagi" davlat bo'lish uchun, - deydi F.Rattselb, - avvalo davlatda geografik, demografik va etnomadaniy parametrlar o'zaro uyg'unlashmog'i kerak".

MAVZU:**ROSSIYADAGI GEOSIYOSIY OQIMLAR VA
MAKTABLAR****1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

| | |
|---|--|
| <i>Mashg'ulot vaqti - 2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg'ulot shakli</i> | Ma'ruza |
| <i>Ma'ruza rejasi</i> | 1.Rossiyadagi geopolitik maktablarva oqimlar. 2.Evrosiyo harakatining tarixiy ildizlari. |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga Rossiyadagi geosiyosiy oqimlar va maktablar xususida tushuncha berish. | |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i> | <i>O'quv faoliyati natijalari:</i> |
| <ul style="list-style-type: none"> • Rossiyadagi geopolitik maktablarva oqimlarni tahlil etib berish. • Evrosiyo harakatining tarixiy ildizlarini asoslab berish. | <ul style="list-style-type: none"> • Rossiyadagi geopolitik maktablarva oqimlar xususida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi. • Evrosiyo harakatining tarixiy ildizlarining xusiyatlarini o'rganishadi. • |
| <i>Ta'lim berish usullari</i> | “Archa”, “Nega”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalarni qo'llagan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta'lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta'lim berish vositalari</i> | Ma'ruza matni, o'quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta'lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki nazorat: savol-javob |

ROSSIYADAGI GEOSIYOSIY OQIMLAR VA MAKTABLAR
ma'ruza mashg'ulotining
TEXNOLOGIK XARITASI.

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|---|--|
| | <i>O'qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi. | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha "Archa" texnologiyasidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi. (2-ilova) 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha «NEGA» usulidan foydalangan xolda talabalarga savol bilan murojaat qiladi. (3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Klassik geosiyosatning asosiy tamoyillari nimaldardan iborat ekanini aniqlashni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (4-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning olgan baholarini e'lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3. Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Insert" usulidan foydalanib jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (5-ilova) | "Insert" usulida jadvalni to'ldiradilar |

2-o'quv topshiriq

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

| Savol | Klassik geosiyosatning asosiy tamoyillari qaysi masalalarni o'ziga olgan? |
|---|---|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |

MAVZU: ROSSIYADAGI GEOSIYOSIY OQIMLAR VA MAKTABLAR

Reja.

1. Rossiyadagi geopolitik maktablarga va oqimlar xususida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.
2. Evrosiyo harakatining tarixiy ildizlarining xusiyatlarini o'rganishadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "geosiyosat" atamasi ilmiy doirada birinchi bulib shved olimi Rudol'f Chellen tomonidan ishlatilgan. R.Chellen professional geograf bo'lmagan va geosiyosatga siyosatshunoslikning muhim bir yo'nalishi sifatida qaragan. U geosiyosatga "borliqda geografik organizm sifatida mujassamlashgan davlatlar haqidagi fan" tarzida ta'rif bergan.

R.Chellen davlatning qudratini unda mavjud bo'lgan beshta jihat bilan bog'laydi, bular: hudud, xo'jalik, xalq, jamiyat va hokimiyat. Shundan kelib chiqib davlat haqidagi fanlar ham beshta bo'lishi kerak (5 ta neologizm - "neo"-yangi, "logos"-so'z (yunoncha), yangi so'z yoki ibora). Uningcha, bu atamalar bir vaqtning o'zida siyosatshunoslikning ham muhim bo'limlaridan sanaladi, ya'ni:

- **geosiyosat** ("davlatni kuch va borliqdagi geografik organizm sifatida o'rganish");
- **ekosiyosat** ("davlatlarni iqtisodiy kuch markazi sifatida o'rganish");
- **demosiyosat** ("davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarni, ularning turmush tarzini tadqiq qilish; F.Rattselning "Antropogeografiya" siga o'xshash);
- **sotsiosiyosat** ("davlatning ijtimoiy jihatlarini o'rganish");
- **kratosiyosat** ("davlatlarning hokimiyat va boshqaruv shakllarini va ularning davlatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan munosabati muammolarini o'rganish").

Olim ushbu yo'nalishlarni ham o'z tadqiqotlarida geosiyosatga parallel ravishda davom ettirsada, keng ilmiy doirada bu yo'nalishlar geosiyosat singari unchalik tan olinmadi. Shu bois uning mazkur yo'nalishlar bo'yicha qarashlari keyinchalik "borliqda geografik organizm sifatida mujassamlashgan davlatlar haqidagi fan" - geosiyosatga qo'shib ketdi, desak ham bo'ladi.

Shuningdek, R.Chellen geosiyosat fanining quyidagi bo'limlardan iboratligini aytadi:

▪ **toposiyosat** - davlatning siyosiy jihatdan qanday muhit bilan qurshalganligini o'rganadi. Topopolitikada davlat uchun tashqi dunyodan bo'ladigan kuchlarning ta'sir etish yoki etmaslik masalasi muhimdir. Bunday omillar davlatga atrofdan ittifoqdoshlar qidirish va davlatlararo kelishuvlarning boshqa variantlarini yo'zaga keltirish uchun muqobil siyosatlarni ishlab chiqish masalasini yo'zaga chiqaradi. Bu jihatdan R.Chellen davlatning geografik joylashuvini «davlat siyosatining kalitidir», - deydi.

▪ **morfosiyosat** - davlatning hududiy shakllarini o'rganuvchi bilimlar majmuasi. Morfopolitika uchun davlat hududlari qanday boylklarga egaligi muhim emas. Bunda davlat hududan qanday ko'rinishga ega, yoysimon, dumaloq yoki o'zunchoq holatda joylashganligi, davlatda markaz bilan joylar o'rtasidagi aloqalarning geografik tizimi va davlatning tashqi dunyoga geografik jihatdan chiqish imkoniyatlari masalasiga e'tibor beriladi. Masalan, Norvegiya, Italiya davlatlarining geografik joylashuvi. R.Chellen fikricha, davlatning katta-kichikligi uning qudratiga poydevor bo'lishi mumkin.

▪ **fiziosiyosat** - davlat hududlarining markazga qanday pozitsiyada ekanligini, ular munosabatlari ko'lamini tadqiq etuvchi bilimlar. R.Chellen fiziopolitikani davlatning, davlatga qarashli boshqa hududlarning qay darajada jismoniy kuchga egaligi yoki ega emasligi bilan bog'laydi. Joylarning (davlat hududlarining) davlat siyosatiga ta'sir etuvchi jismoniy-geografik xususiyatlarini o'rganish va tahlil etish fiziopolitikaning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Shved olimi davlatning qudratini quyidagi formula bilan izohlaydi:

Davlat kuch-qudrati $q = f$ (tabiiy-geografik xususiyatlari Q xo'jalik Q xalq Q davlat boshqaruv shakli)

Tabiiy-geografik xususiyatlar - davlatning qanday geografik makonda joylashganligi, xalqaro savdo tarmoqlariga chiqish imkoniyatlari, davlatning fauna va flora dunyosi, iqlimi va b.

Davlat xo'jaligi deganda R.Chellen davlatning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zini boqa olishiga asos bo'ladigan omillar - tabiiy resurs manbalariga, bozor to'zilmalariga va shu kabi

boshqa omillarga egaligini va ularning dunyo xo'jalik tarmoqlari bilan qanday darajada bog'langanligini nazarda tutadi. Iqtisodiy munosabatlarda R.Chellen avtarkiyani – davlatning zarur narsalarni chetdan olmasdan mamlakat aholisiga o'zi etkazib berishga asoslangan milliy xo'jalik tizimiga erishishni yoqlaydi.

Xalq - bu mamlakatda istiqomat qiluvchi milliy-etnik guruhlar. Biroq R.Chellen davlatda yashayotgan xalqni madaniy, etnik va demografik munosabatlardan kelib baholaydi. Olim ularni tadqiq etishda «biosiyosat» atamasini qo'llagan. Uningcha, biopolitika «jamiyat mezon: aql, yurak va tartibot»ni yo'zaga keltiruvchi xalqlar turmush tarzini o'rganadi.

Davlat boshqaruv shakli deganda R.Chellen davlatning boshqaruv tizimini nazarda tutmaydi. U davlat boshqaruv shakli deganda bir tomondan, davlatdagi vijdon erkinligi, hurfikrlilik, yig'ilishlar o'tkazish erkinligi va shu kabilarni, ikkinchi tomondan, davlatga soliq to'lashning majburiyligi, harbiy xizmat majburiyatlari, maktabda o'qish va boshqa shu kabi masalalarni nazarda tutadi. Chunki ushbu omillarning amaliyotda o'z aksini topishi o'sha davlat boshqaruv shaklining nechog'li kuch-qudratga egaligini namoyon etadi.

R.Chellen o'zining «Zamonaviy buyuk kuchlar» asarida geosiyosatda birinchi bo'lib buyuk davlat (kuch) to'zish nazariyasini o'rta tashlagan. Uningcha, buyuk davlat (kuch)lar geosiyosiy jarayonlarning sub'ekti bo'lish bilan bir vaqtda, mantiqiy tomondan ham geosiyosat predmetining asosini tashkil etishi kerak. Tadqiqotchi buyuk davlat (kuch)larni ikkiga bo'ladi, ya'ni xalqaro kuchlar va buyuk kuchlar. U I-jahon urushiga qadar xalqaro kuchlar qatoriga Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya va Germaniya davlatlarini kiritgan. Buyuk kuchlar sifatida esa Yaponiya, Frantsiya, Italiya va Avstro-Vengriya imperiyasini ko'rishgan.

Xullas, R.Chellenning ilgari surgan va nazariy isbotlashga uringan geosiyosiy kontseptsiyalari F.Rattsel qarashlarini mundarijaviy jihatdan to'ldirdi. U o'zining asosiy ishi - "Davlat hayotning muhim shakli sifatida" (1916) nomli asarida davlat va jamiyatga nisbatan "orginitistik" qarashlarini bayon qilgan. Agar F.Rattsel Evropa mintaqasidagi siyosiy kuch markazi muammosiga umumiyroq tasnif etgan bo'lsa, R.Chellen uning geosiyosiy printsiplarini rivojlantirib Evropada "mintaqaviy davlat" - kuch markazi sifatida Germaniyani aniq ko'rsatadi.

Uningcha, Germaniya Evropa mintaqasida boshqa davlatlarga nisbatan markaziy geografik kengliknigina tashkil etmasdan, balki Evropadagi siyosiy kuch markazligiga da'vogar davlatlardan dinamik (jo'shqin) xususiyatga ega davlatligi bilan ajralib turadi. Bunga misol tariqasida u, I-jahon urushi davridagi tabiiy geosiyosiy konflikt orqasida yo'zaga kelgan Germaniyaning ("markaz davlat") dinamik ekspansion siyosati va unga qarshi harakat qilayotgan pereferiy (atroidagi) Evropa mintaqasiga oid (undan tashqari ham) davlatlarni (Antanta davlatlari) nazarda tutadi.

Agar F.Rattsel Evropada Germaniyaga qarshi boshqa mintaqaviy siyosiy kuch markazlari bor deb va aniq bir davlatlarni ko'rsatmagan bo'lsa, R.Chellen Germaniyaning manfaatlariga Farbiy Evropa davlatlaridan qaysi davlatlar manfaati qarama-qarshi bo'lishini aniq ko'rsatib, ularning Frantsiya va Angliya bo'lishidan bahs etadi. Uning nazarida, Germaniya "yosh" (Junge) davlat, nemis xalqi esa - "yosh xalq" (Junge Volk). "Markaziy Evropa borlig'i"da "yosh"lar "qadimgi xalqlar" (frantso'zlar va inglizlar) bir vaqtlar nazorat qilgan hududlar hisobiga yoki u erlarga intilib sayyoraviy kenglik sari harakat qilmog'i lozim. Ko'rinib turibdiki, R.Chellen bunday qarashlari bilan Evropa mintaqasida geosiyosiy qarama-qarshilikning mafkuraviy jihatlarini birlamchi o'ringa qo'yadi.

R.Chellen shved bo'lganligi bois Shvetsiya siyosatini nemislar siyosati bilan yaqinligini aytadi. Va bu ikki xalq yashayotgan kengliklar Evropada markaziy makonni tashkil etadi, deydi. Bu jihatdan uning qarashlari Fridrix Naumannning "Markaziy Evropa" (Mitteleuropa) nazariyasiga mos keladi.

MAVZU:

**YANGI DAVR GEOSIYOSIY NAZARIYALARI VA
MAKTABLARI**

1.1. Ta`lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|--|
| <i>Mashg`ulot vaqti-2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg`ulot shakli</i> | Ma`ruza |
| <i>Ma`ruza rejasi</i> | <ol style="list-style-type: none"> Rossiyada geosiyosiy munosabatlar rivoji tarixi Rossiya-AQSh-Xitoy munosabatlari ahamiyati |
| <p><i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i> Talabalarga geosiyosiy munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan o`rni masalasi, sobiq ittifoqning qulashi, uning davlat manfaatiga ta`siri, shuningdek Rossiya –AQSh va Xitoy munosabatlarining rivoji xususida tushuncha berish, geosiyosiy tasavvurlar haqida ko`nikmalar shakllantirish</p> | |
| <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> Geosiyosiy munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan o`rni masalasi, sobiq ittifoqning qulashi, uning davlat manfaatiga ta`siri va tavsifi to`g`risida ma`lumotlar berish; Rossiya –AQSh va Xitoy munosabatlarining rivoji xususida tushuncha berish | <p><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> Talabalar geosiyosiy munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan o`rni masalasi, sobiq ittifoqning qulashi, uning davlat manfaatiga ta`siri va tavsifi haqida bilib oladilar; Rossiya –AQSh va Xitoy munosabatlarining rivoji xususida tushuncha berish, geosiyosiy tasavvurlar haqida milliy taraqqiyot va yuksalishga erishishda geosiyosiy ko`nikmalar ahamiyatini tushunadilar; |
| <i>Ta`lim berish usullari</i> | “Piramida”, “O`rgimchak”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalaridan foydalanib gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta`lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta`lim berish vositalari</i> | Ma`ruza matni, o`quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta`lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og`zaki nazorat: savol-javob |

YANGI DAVR GEOSIYOSIY NAZARIYALARI VA MAKTABLARI
ma'ruza mashg'ulotining
TEXNOLOGIK XARITASI.

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|--|--|
| | <i>O'qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzuni yozib oladi |
| | 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi (2-ilova) Ma'ruza bo'yicha "Piramida" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Rossiyada geosiyosiy munosabatlar tizimi qanday rivojlanib kelgan? (3-ilova). | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova). Ma'ruza bo'yicha "O'rgimchak" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Rossiyani ittifoq parchalanishidan keyin yo'qotishlari uning AQSh va Xitoy bilan munosabatlariga qanday ta'sir qildi? (5-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Rossiyaning jahon geosiyosiy munosabatlari tizimidagi tutgan o'rni masalasini «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (6-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning baholash mezonlarini e'lon qilindi | Yozib oladi |
| | 3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova) | Javob yozadi |
| | 3.4 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Aqliy xujum" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (8-ilova). | "Insert" usulida jadvalni to'ldiradi. |

MAVZU: “YANGI DAVR GEOSIYOSIY NAZARIYALARI VA MAKTABLARI**Reja.**

- Rossiyada geosiyosiy munosabatlar rivoji tarixi
- Rossiya-AQSh-Xitoy munosabatlari ahamiyati

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga geosiyosiy munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan o‘rni masalasi, sobiq ittifoqning qulashi, uning davlat manfaatiga ta’siri, shuningdek Rossiya – AQSh va Xitoy munosabatlarining rivoji xususida tushuncha berish, geosiyosiy tasavvurlar haqida ko‘nikmalar shakllantirishga erishish.

• **O‘quv faoliyatining natijasi:** Talabalar geosiyosiy munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan o‘rni masalasi, sobiq ittifoqning qulashi, uning davlat manfaatiga ta’siri va tavsifi haqida bilib oladilar, Rossiya –AQSh va Xitoy munosabatlarining rivoji xususida tushuncha berish, geosiyosiy tasavvurlar haqida milliy taraqqiyot va yuksalishga erishishda geosiyosiy ko‘nikmalar ahamiyatini tushunadilar

- *Mavzuning 1-masalasi* Rossiyada geosiyosiy munosabatlar rivoji tarixi

Rossiyaning MDH davlatlari manfaatlariga mos ravishda tashqi siyosat olib borishiga ta’sir qiluvchi ikki xil omil mavjud. Biri sobiq sho‘rolar tizimidan qolgan va Eltsin davrida yanada murakkablashgan ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi ichki muammolar bo‘lsa, ikkinchisi G‘arbning Rossiyani parchalab tashlashni ko‘zda tutgan intilishlari bilan bog‘liq. Ichki va tashqi muammolarni quyidagicha tavsiflash mumkin.

Ichki muammolar:


- davlat boshqaruv tizimini to‘liq egallab olgan korrupsiya;
- iqtisodiy jinoyatlar;
- eski to‘zumdan qolgan va hozirgacha bartaraf etish imkoni bo‘lmagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;

Tashqi omillar:

- Rossiyaning ta’sir doirasini toraytirishga qaratilgan NATOning Sharqqa kengaytirilishi, “rangli inqiloblar”ni amalga oshirish orqali G‘arb ta’siridagi “bufer” davlatlarni shakllantirish;
- xalqaro terroristik guruhlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ayirmachilik kayfiyatlarini kuchaytirish;
- Transmilliy korporatsiyalar vositasida Rossiyaning xom ashyo zaxiralariga egalik qilish;
- Rossiyada demokratik islohotlarni, fuqarolik jamiyati tamoyillarini joriy etish mamlakat milliy yaxlitligiga xorijiy nodavlat notijorat vakolatxonalarini ochish yoki shunday tashkilotlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash.

1-o'quv topshiriq
«Piramida» organayzerini to'ldiring

Savol. Rossiyada geosiyosiy munosabatlari tizimiga salbiy ta'sir etgan voqealarni qanday tushunasiz?



4-ilova


• *Mavzuning 2-masalasi* Rossiya-AQSh-Xitoy munosabatlari ahamiyati
 Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarning kengayishi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ilgari surayotgan Markaziy Osiyoda umumiy bozorni yaratish tashabbusi va bunyodkorlik yo'lidagi jiddiy qadam bo'lib, u o'z navbatida jahon iqtisodiyotida mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari haqida gapirganda shuni e'tirof etish kerakki, u nafaqat geosiyosiy, balki jiddiy iqtisodiy asosga ham ega. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarga kelganda shuni alohida ta'kidlash joizki, munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishi ikkala mamlakat uchun ham hamkorlikni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.


1-o'quv topshiriq

«O'rgimchak» texnologiyasi orqali quyidagi masalalarni yoriting

1 – guruhga.



2 – guruhga.



6-ilova

2-o'quv topshiriq

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring
1-guruh

| Savol | Milliy g'oya tarkibini nimalar tashkil etadi |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

2-guruh

| Savol | Geosiyosiy omillarni qanday tushunasiz? |
|---|---|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

7-ilova

Умумлаштирувчи саволлар

1. SSSR parchalanishining dunyoning siyosiy xaritasiga va kuchlar balansiga keskin ta'siri нимада?.
2. Rossiya-AQSh munosa-batlari қандай ривожланди?
3. Rossiya va Shimoliy Atlantika regioni bilan munosabatlar yangi bosqichda хусусиятлари?
4. Rossiya-Xitoy munosabatlari ob'ektiv zaruriyat эканини изохланг?

8-ilova

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:
V – bilaman
+ - men uchun yangi ma'lumot
- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi
? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.
2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |
| 7. | | | | |

MAVZU: “YANGI DAVR GEOSIYOSIY NAZARIYALARI VA MAKTABLARI

Reja.

1. Rossiyada geosiyosiy munosabatlar rivoji tarixi
2. Rossiya-AQSh-Xitoy munosabatlari ahamiyati

Petr Nikolaevich Savitskiy 1895 yilda dunyoga kelgan. Birinchi rus geosiyosatchisi. To‘g‘ri, uning mutaxassisligi iqtisodchi. Mashhur olimlar V.Vernadskiy va P.Struvelarning o‘quvchisi bo‘lgan. Biroq uning ilmiy va amaliy mushohadalari geosiyosiy mohiyatga ega.

Urushga qadar siyosiy tomondan kadetlarga yaqin bo‘lib, revolyutsiyadan keyin Bolgariyaga ketishga majbur bo‘lgan. Keyin esa u erdan CHexoslovakiyaga kelgan. 1921 yildan boshlab N.S.Trubetskiy bilan birgalikda geosiyosiy masalalar diqqat markazida bo‘lgan evrosiyochilar harakatini boshqargan. Aynan shu vaqtlarda P.Savitskiy qarashlari geosiyosat olamiga kirib bo‘lgan edi.

P.Savitskiy dunyoqarashining takomillashib borishida slavyanchilik (A.S.Xomyakov, aka-uka Kireevskiylar, Aksakovlar, Yu.F.Samarin) harakati vakillarining ta‘siri katta bo‘lgan.

1945 yil sovet qo‘shinlari Pragani egallagach, P.Savitskiy ham shu erda hibsga olinib 10 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. P.Savitskiy qamoqxonada N.Gumilevning o‘g‘li Lev Gumilev bilan tanishadi. Ular o‘rtasida nafaqat do‘stona munosabat, balki ijodiy almashinuv ham bo‘lgan. Kichik Gumilev P.Savitskiyga shogird bo‘ladi. Bilamizki, keyinchalik L.Gumilev taniqli rus etnografi va tarixchisi bo‘lib etishadi.

1956 yil P.Savitskiy oqlanadi. U SSSRdan Pragaga qaytadi va o‘sha erda umrining qolgan o‘n ikki yilini yashaydi. 1968 yil esa olamdan o‘tadi.

Mashhur asarlari: «Dasht va o‘troqlik» (1922), «Rossiya-Evrosiyoning geografik tahlili» (1926), «Evrosiyoning geografik va geosiyosiy asoslari» (1933).

P.Savitskiy geosiyosiy qarashlarida Rossiyaning geografik joylashuviga katta e‘tibor berilgan. Tadqiqotchining fikricha, Rossiya jahon siyosiy xaritasida joylashuvi jihatidan tsivilizatsion shaklga ega. Davlat nafaqat geografik qulay makonda joylashgan, balki uning hududlari jahon geosiyosiy maydonida «o‘rtaliq» makonni tashkil etadi.

P.Savitskiy 1933 yilda yozgan «Evrosiyoning geografik va geosiyosiy asoslari» nomli maqolasini quyidagicha boshlagan, ya‘ni «Evrosiyoda Rossiya Xitoyga nisbatan keng imkoniyatlarga ega. CHunki Rossiya «O‘rtaliq Davlat»dir»

To‘g‘ri, klassik geosiyosatda «o‘rtaliq» davlat sifatida Germaniya qayd qilingan. Biroq, P.Savitskiy Germaniyani Evrosiyoga nisbatan «o‘rtaliq» davlat sifatida tan olmaydi. Faqat u Germaniyani Evropa mintaqasining markazi deb biladi. CHunki Evropa Evrosiyoga emas, balki Evropa Evrosiyoning «g‘arbiy burni» xolos. Rossiya esa Evrosiyoga borlig‘ining butun markaziy va tarkibiy qismini tashkil etadi.

P.Savitskiy Rossiyaga milliy davlat sifatida qaramaydi. U Rossiyaga geosiyosiy omillardan kelib chiqib munosabat bildiradi va uni birinchi navbatda geosiyosiy kuch deb biladi. Rossiya oriy-slavyan madaniyati, turk ko‘chmanchilik va pravoslav an‘analarini mujassamlashtirgan o‘ziga xos tsivilizatsiya ekanligini va mazkur madaniyatlar «o‘rtaliq» makonda jahon tarixining sintezi sifatida shakllanganligini ta‘kidlaydi.

P.Savitskiy tarixan rus madaniyatining takomillashishi va rivojlanishini «imperiya aylangan sharqiy slavyanlar»ning harakatlari bilangina bog‘lamaydi. Uningcha, rus davlatchilik madaniyatining rivoji slavyan va turk madaniyatining o‘zaro munosabatga kirishuvi davriga bog‘liq (XIII-XV asrlar). Bu jihatdan uning Turon kontseptsiyasiga to‘xtalmoq o‘rinlidir.

To‘g‘ri, Turonga geosiyosiy makon sifatida va ijobiy jihatdan yondashgan ko‘plab tadqiqotchilar rus millatchilarining tanqidiga duch kelishgan. CHunki aynan Turon geosiyosiy makoni orqali mug‘ul-tatarlar Rossiyaga unutilib bo‘lmaydigan darajada zulm berishgan. P.Savitskiy mug‘ul-tatarlarning o‘z davlatini bo‘ysindirganligini mohirona ma‘qullaydi va unchalik tanqidchilar nigohiga tushmaydi. Chunki «Rossiya mug‘ul-tatarlarning kelishi bilan kelajakdagi geosiyosiy erkinligini va ruhiy mustaqilligini roman-german agressorlaridan saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ldi». Bundan xulosa qilish mumkinki, agar mug‘ul-tatarlar

Rossiya erlarini bosib olmaganda vaqti kelib ham Rossiya buyuk imperiyaga aylana olmas edi. Ya'ni P.Savitskiy tatarlar bosqinchiligining davriyligi oldindan ma'lum bo'lganligiga ishora qilmoqda. Turk dunyosiga nisbatan bunday munosabat tadqiqotchiga Rossiyaning Evropa makoniga mansub emasligi va ruslarning o'ziga xos etnik tarkib ekanligini ilmiy doiraga olib chiqishga imkon berdi. Shuning uchun ham P.Savitskiy chiqishlarida makonga nisbatan umumiy Evrosiyo deb emas (garchi u evrosiyochilar oqimiga mansub bo'lsada), balki Rossiya-Evrosiyo qabilida mulohazalarini bildirgan.

P.Savitskiy o'zining «Dasht va o'troqlik» nomli mashhur maqolasida evrosiyochilar uchun nazariy asos bo'lgan «Evrosiyoda tatarlarsiz (turklarsiz) buyuk Rossiya davlati bo'lmas edi»,- degan geosiyosiy formulasini o'rta tashlagan.

Mazkur maqolada yana quyidagi jumlar ham bor, ya'ni: «Rossiya Osiyoni birlashtirishga erishgan CHingizxondan to Temurgacha bo'lgan Buyuk Xonlar vorisidir... Bunda bir vaqtning o'zida tarixiy «o'troqlik» va «dashtlar» munosabatlari mujassamlashgan».

Turon (forscha so'z, ya'ni turkiylar demakdir) – turkiy qavmga mansub xalqlar yashaydigan geografik makonni bildiradigan ijtimoiy, tarixiy-etnik atama.

Turon hududan faqat geografik emas, geografik-tarixiy talqinga ega. Turon hududi Tinch okeanidan O'rta er dengizidagi Egey-Adreatikagacha, Shimoliy mo'z okeanidan Tibet, Himoloy tog'larigacha, shimoliy Hindistondan Onado'ligacha (Turkiya) bo'lgan kengliklarni, u erlarda yashovchi turkiy xalqlarni birlashtiradi.

O'zbekiston Turonning markaziy qismida joylashgan.

Agar slavyanofillar rus landshaftini geografik jihatdan o'rmon va dashtga bo'lishgan bo'lsa, P.Savitskiy Rossiya-Evrosiyoning geosiyosiy mohiyatidan kelib chiqib makonni Evropa o'rmonlari va Osiyo dashtlariga bo'ladi. Rossiyaga esa o'sha geosiyosiy makonlarning sintezi sifatida qaraydi.

Albatta, geografik jihatdan Turon Rossiya-Evrosiyoga mos kelmaydi. Rossiya-Evrosiyoning ko'lami keng. Biroq P.Savitskiy ana shu kenglik Turon orqali yo'zaga kelganligini ta'kidlaydi, xolos. Bu tomondan Rossiyaga Evropada ba'zan «mug'ul ruhini tashuvchi» «varvarlar» sifatida qarashadi. Vaholanki, bunday qarashlar «Evrosiyoni o'z izmiga ololmay kelayotgan» /arbning – talassokratiya kuchlarining o'z manfaatlarini yo'lida bildirgan sub'ektiv qarashlaridan boshqa narsa emas.

P.Savitskiy ijodining tarkibiy qismi yana bir kontseptsiya – «rivojlanish o'chog'i» kontseptsiyasi bilan bog'liq. «Rivojlanish o'chog'i» F.Rattselb «siyosiy geografiyasi»da sharhlangan «Raum»-«borliq» tushunchasi bilan mohiyatan to'g'ri keladi. Bunda nemis «organitsistik» maktabiga mos keluvchi hamda aglosakson geosiyosatchilarining voqealarni faqat tashqi bog'lanish va izchilligiga qarab tasvirlovchi qarashlari-pragmatizmiga zid bo'lgan evrosiyochilarning «organitsistik» kayfiyatlari o'z ifodasini topgan.

«Rivojlanish o'chog'i» - bu Rossiya-Evrosiyo. Makonda ijtimoiy-siyosiy muhit va uning hududidagi geografik geografik individuuum (landshaftlar) o'zaro uyg'unlashgan. «Rivojlanish o'chog'i»ning yuksalishiga nafaqat geografik, balki u bilan barobarida etnik, tarixiy, xo'jalikka va boshqa ko'rinishlarga ega bo'lgan asoslar mavjud. Bu jihatdan «Rivojlanish o'chog'i»ni yaxlit «Grossraum» sifatida emas, ko'plab mayda «raum»lardan tashkil topganligini aytmq lozim.

P.Savitskiy geosiyosiy qarashlarida «Evrosiyo», «Turon», «Rivojlanish o'chog'i» nazariyalaridan tashqari, «ideokratiya» printsiplari ham alohida o'ringa ega. Ideokratiya ham boshqa geosiyosiy dasturlar singari «kuch» tushunchasini o'zida mujassam etadi. Masalan, geosiyosatda davlat yoki xalqaro tashkilotlarni umumiy qilib «kuch» deb atashimiz mumkin. Ideokratiya bunga qarama-qarshi qo'yilgan emas.

P.Savitskiyning ideokratiya nazariyasi kuch-davlatdagi siyosiy to'zilikka bag'ishlangan. Ideokratiya shunday printsiplari, unda davlat boshqaruvida pragmatik yondashuv yoki moddiy va tijorat omillari asosiy o'rin egallamasligi kerak. CHunki har bir davlatda «geografik shaxs»lar mavjud. «Geografik shaxslar» - bu o'sha davlat fuqarolari, davlatning tabiiy resurslari, davlatdagi ishlab chiqarish korxonasi va xo'jaliklari va b. Geografik makondagi «geografik shaxslar» jamiyat moddiy ehtiyojlarini ta'minlab beradi.

| | |
|---------------|--|
| MAVZU: | TURKISTON HUDUDIDA VUJUDGA KELGAN DASTLABKI GEOSIY BILIMLAR VA HARAKATLAR |
|---------------|--|

1.1. Ta`lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| Mashg`ulot vaqti-2 soat | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| Mashg`ulot shakli | Ma`ruza |
| Ma`ruza rejasi | <p>1.«O`zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar. Sharq va G`arb o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlar.</p> <p>2.Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asari. Geosiyosiy bilimlar rivojida «Temur tuzuklari» asari</p> |
| <p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarga Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiy bilimlar va harakatlar xususida ma`lumot berish.</p> | |
| <p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalarga O`zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar. Sharq va G`arb o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlar haqida tushuncha berish • Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asari. Geosiyosiy bilimlar rivojida «Temur tuzuklari» asari haqida ma`lumot berish | <p>O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar O`zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar. Sharq va G`arb o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlar xususida ma`lumotga ega bo`lishadi. • Talabalar Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asari. Geosiyosiy bilimlar rivojida «Temur tuzuklari» asari to`g`risida tushunchaga ega bo`lishadi. |
| Ta`lim berish usullari | “Tarmoqlash”, “Qanday”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalarni qo`llagan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| Ta`lim berish shakllari | Jamoaviy, guruxlarda |
| Ta`lim berish vositalari | Ma`ruza matni, o`quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| Ta`lim berish sharoiti | Auditoriya |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat: savol-javob |

**TURKISTON HUDUDIDA VUJUDGA KELGAN DASTLABKI GEOSIY BILIMLAR VA HARAKATLAR
MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI**

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|--|--|
| | <i>O'qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi Ma'ruza bo'yicha "Tarmoqlash" usulidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi.(2-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi Ma'ruza bo'yicha «Qanday» usulidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi. (3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Geosiyosiy munosabatlar xususiyatlarini aniqlashni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlar topshiriqlar beradi (4-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalar olgan baholarini e'lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3.Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Insert" usulidan foydalanib jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (8-ilova) | "Insert" usulida jadvalni to'ldiradilar |

1-ilova

MAVZU: TURKISTON HUDUDIDA VUJUDGA KELGAN DASTLABKI GEOSIY BILIMLAR VA HARAKATLAR

Reja.

1. «O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar. Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar.
2. Farobiyning «fozil odamlar shahri» asari. geosiyosiy bilimlar rivojida «Temur tuzuklari» asari.


O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiy bilimlar va harakatlar xususida ma'lumot berish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiy bilimlar va harakatlar xususida ma'lumotga ega bo'lishadi

2-ilova

“Tarmoqlash” texnologiyasi


SAVOL: Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiy bilimlar haqida nimalarni bilasiz?



1-o'quv topshiriq

«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



4-ilova

2-o'quv topshiriq
FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

| Savol | Geosiyosiy bilimlar rivojida Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asarining tutgan o'rni |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |
| 7. | | | | |

MAVZU: TURKISTON HUDUDIDA VUJUDGA KELGAN DASTLABKI GEOSIY BILIMLAR VA HARAKATLAR

Reja.

1. «O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar. Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar.

2. Farobiyning «fozil odamlar shahri» asari. geosiyosiy bilimlar rivojida «Temur tuzuklari» asari.

Tarixni bilish, undan to'g'ri va xolis xulosalar chiqara olish inson ma'naviy kamoloti uchun nixoyatda muhim. Tapix buyuk muallim, o'tmishdan saboq beradigan tarbiyachidir. Gap eng qadimgi davr falsafasi haqida borar ekan, bu masala yanada katta ahamiyat kasb etadi. Ayrimlar «Bizga ming yillar qa'rida yotgan madaniyat va falsafadan nima foyda, yaxshisi, bugunning gapidan gapiring?», «O'tmish qa'ridan tashbex izlagandan ko'ra, bugungi muammolar ustida bosh qotirgan ma'qul emasmi?» degan xayollarga borish mumkin. Bir qarashda ularning gapida ham jon borgan o'xshaydi. Ammo bir narsa aniq: o'tmishni bilmasdan turib, kelajakni to'g'ri tasavvur etish mumkin emas. Zero, o'tmishsiz kelajak yo'q. SHu ma'noda, biz falsafa tarixini azbaroyi o'tmishga qiziqqanimiz uchun o'rganmayapmiz. Biz uni turli zamonlarda ro'y bergan xilma-xil voqea va hodisalarning falsafiy fikr va ongida qanday aks etgani, ularni qanday g'oyalarning tugilishiga sabab bo'lgani, qaysi ta'limotlar insoniyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgani, qaysi mafkura odamzodni ko'proq rivojlanish yoki tanazzul tomon yetaklagani kabi haqiqatlarni bilib olish uchun o'rganamiz. Tarixni o'rganmoq va undan saboq olmoq har bir inson uchun zarurdir. Bu falsafa bilan shug'ullanayotgan mutaxassis uchun ham, uni o'rganayotgan talaba uchun ham birdek muhim ahamiyatga ega. Tarixni falsafasiz to'g'ri tushunib bo'lmagani kabi, falsafani ham tarixsiz to'g'ri anglab bo'lmaydi. SHularni nazarda tutib, quyida biz mamlakatimiz tarixida muayyan iz qoldirgan ayrim falsafiy qarashlar va ta'limotlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

| <i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Ikki qutbli dunyoning barham topishi, «sovuq urush» ning tugashi. Dknyoning yangi siyosiy xaritasi muammosini tahlil etib berish. • Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar. Mintaqaviy mojaro mohiyati va O‘zbekistonning geosiy manfaatiga zidligini asoslab berish. | <i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Ikki qutbli dunyoning barham topishi, «sovuq urush» ning tugashi. Dknyoning yangi siyosiy xaritasi muammosi xususida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. • Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar. Mintaqaviy mojaro mohiyati va O‘zbekistonning geosiy manfaatiga zidligini o‘rganishadi. |
| <i>Ta’lim berish usullari</i> | “Archa”, “Nega”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalarni qo‘llagan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta’lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta’lim berish vositalari</i> | Ma’ruza matni, o‘quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta’lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og‘zaki nazorat: savol-javob |

**GEOSIY BILIMLAR RIVOJIDA I.KARIMOVNING «O‘ZBEKISTON XXI ASR
BO‘SAG‘ASIDA: XAVFSIZLIKKA TAHDID, BARQARORLIK SHARTLARI VA
TARAQQIYOT KAFOLATLARI» ASARINING NAZARIY-METODOLOGIK AHAMIYATI
ma’ruza mashg‘ulotining
TEXNOLOGIK XARITASI.**

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|---|--|
| | <i>O‘qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o’quv mashg‘ulotining maqsadi va o’quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg‘ulotni o’tkazish shaklini e’lon qiladi. | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo’yicha ma’ruza qiladi. Ma’ruza bo’yicha “Archa” texnologiyasidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi. (2-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo’yicha ma’ruza qiladi. Ma’ruza bo’yicha «NEGA” usulidan foydalangan xolda talabalarga savol bilan murojaat qiladi. (3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Klassik geosiyosatning asosiy tamoyillari nimaldardan iborat ekanini aniqlashni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (4-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o’tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to’g’ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo’yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarining olgan baholarini e’lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3. Navbatdagi mashg‘ulotda ko’riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Insert” usulidan foydalanib jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko’rishlarini so’raydi (5-ilova) | “Insert” usulida jadvalni to’ldiradilar |

MAVZU: GEOSIY BILIMLAR RIVOJIDA I.KARIMOVNING «O‘ZBEKISTON XXI ASR BO‘SAG‘ASIDA: XAVFSIZLIKKA TAHDID, BARQARORLIK SHARTLARI VA TARAQQIYOT KAFOLATLARI» ASARINING NAZARIY-METODOLOGIK AHAMIYATI

Reja.

1. Ikki qutbli dunyoning barham topishi, «sovuq urush» ning tugashi. Dknyoning yangi siyosiy xaritasi.


2. Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar. Mintaqaviy mojaro mohiyati va O‘zbekistonning geosiy manfaatiga zidligi.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga geosiy bilimlar rivojida I.Karimovning «O‘zbekiston xxi asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining nazariy-metodologik ahamiyati xususida tushuncha berish.

O‘quv faoliyatining natijasi: Talabalar geosiy bilimlar rivojida I.Karimovning «O‘zbekiston xxi asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining nazariy-metodologik ahamiyati xususida tushunchaga ega bo‘lishadi.


“ARCHA” texnologiyasi

SAVOL: *I.Karimovning «O‘zbekiston xxi asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asari xaqida nimalarni bilasiz?*



1-o'quv topshiriq

«NEGA» organayzerini to'ldiring



4-ilova

2-o'quv topshiriq

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

| Savol | Geosiy va etnik asosdagi tahdidlar va ularning echimi bilan bilan bog'liq taklif va xulosalar |
|---|---|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |
| 7. | | | | |

MAVZU: GEOSIY BILIMLAR RIVOJIDA I.KARIMOVNING «O'ZBEKISTON XXI ASR BO'SAG'ASIDA: XAVFSIZLIKKA TAHDID, BARQARORLIK SHARTLARI VA TARAQQIYOT KAFOLATLARI» ASARINING NAZARIY-METODOLOGIK AHAMIYATI

Reja.

1. Ikki qutbli dunyoning barham topishi, «sovuq urush» ning tugashi. Dknyoning yangi siyosiy xaritasi.

2. Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar. Mintaqaviy mojaro mohiyati va O'zbekistonning geosiy manfaatiga zidligi.

Insoniyat, mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyoniga yetmoqda. Ishonchim komilki, bizni - hozirgi O'zbekistonda istiqomat qiluvchilarning ko'pchiligini tirikchilik tashvishlari - chin voqelik muammolari bilan birga: "Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatimiz, qayoqqa qarab ketyapmiz? Insoniyat yangi - XXI asrga qadam qo'yanida bizning o'rnimiz qaerda va qanday bo'ladi?" - degan savollar o'ylantirishi tabiiy.

Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to'g'ri baho berish juda muhim.

Dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Ular, hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o'tmishga ega bo'lgan, o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orasida teng bo'lishga, jahon maydonining tarkibiy qismiga aylanishga harakat qilmoqda. Bu davlatlar oldida muvaffaqiyatsiz, chippakka chiqqan tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turibdi. Ular zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan, odamlar munosib turmush kechirishini ta'minlay oladigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etishi zarur. O'zbekiston ham ana shunday davlatlar jumlasiga kiradi.

XXI asr O'zbekiston aholisi uchun qanday keladi? Kishilar turmushi kechagidan qanchalik yaxshiroq bo'ladi? O'zimiz uchun tanlab olgan islohotlar va yangilanish yo'li o'ta murakkab yo'l ekanligini anglayapmizmi? Bu yo'lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilyapmizmi?

Eng avvalo, odamlarning mana shu boy zaminda munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga qaratilgan maqsad va vazifalarni qay darajada ro'yobga chiqara olamiz? Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetyapmizmi?

Xavfsizligimizga tahdid bo'lib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz? Jamiyatimiz to'xtovsiz va barqaror rivojlanishiga, biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'Qrofiy-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi?

Mamlakatimiz yangi ming yillikda mustahkam, og'ishmay va barqaror rivojlanishni kafolatlaydigan qanday imkoniyatlarga ega? Jahonning barcha mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli, har tomonlama keng hamkorlik qilish uchun nimalarni taklif eta olamiz?

Totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qoldimi? Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo:

bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish;

milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi;

etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;

qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;

dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;

mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi - bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lishni talab qilayotganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam G'oyat murakkab va muammoli bo'lib keldi, shunday bo'lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo'lib qolajak.

Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, XXI asr arafasida xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda.

Suveren davlatning har bir rahbari, har bir yetakchisi oddiy kishilar ishonch bildirib uning zimmasiga yuklagan juda katta burch va mas'uliyatni teran anglab, o'y-xayolini hamisha tinchlik, osoyishtalikni saqlash, avaylash va mustahkamlashga qaratmoqi kerak. Ushbu murakkab, voqealarga boy yillarda poydevorini qo'yishga muvaffaq bo'lingan yangi uyni qurish va obod qilish uchun o'rnimizga keladigan avlod oldidagi mas'uliyatimizni bir daqiqa bo'lsin, unutishga haqqimiz yo'q.

O'tgan yillarning mantiqi bizni hozirgi kunda uchta asosiy savolga murojaat qilishga undamoqda. O'zbekistonning kelajagi ana shu savollarga qanday javob berishimizga bo'liq. Bular quyidagilardir: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin?

Bugun O'zbekiston - faqat juda boy tabiiy-xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan sohagina emas. Ayni choqda mamlakatimiz G'oyat ulkan aql-zakovat, ma'naviy va madaniy imkoniyatlarga ega. Bularning barchasi dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib faol shakllanib borayotgan bir sharoitda, yurtimizning noyob jo'Qrofiy o'rni bilan qo'shilgan holda juda katta jo'Qrofiy-siyosiy va jo'Qrofiy-strategik qiziqish uyg'otadi

MAVZU:

YANGI MING YILLIKDA ROSSIYA

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| <i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg'ulot shakli</i> | Ma'ruza |
| <i>Ma'ruza rejasi</i> | 1.SSSR parchalanishining dunyoning siyosiy xaritasiga va kuchlar balansiga keskin ta'siri. 2. Rossiya va NATO munosabatlari |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i> Talabalarga yangi ming yillikda Rossiyaning geosiyosiy o'rni xususida tushuncha berish va mavzu haqida ko'nikmalarni shakllantirish | |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i> • Geosiyosiy munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan o'rni masalasi, sobiq ittifoqning qulashi, uning davlat manfaatiga ta'siri va tavsifi to'g'risida ma'lumotlar berish; • Rossiya –AQSh va Xitoy munosabatlarining rivoji xususida tushuncha berish | <i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Talabalar geosiyosiy munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan o'rni masalasi, sobiq ittifoqning qulashi, uning davlat manfaatiga ta'siri va tavsifi haqida bilib oladilar; • Rossiya –AQSh va Xitoy munosabatlarining rivoji xususida tushuncha berish, geosiyosiy tasavvurlar haqida milliy taraqqiyot va yuksalishga erishishda geosiyosiy ko'nikmalar ahamiyatini tushunadilar; |
| <i>Ta'lim berish usullari</i> | “Piramida”, “O'rgimchak”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalaridan foydalanib gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta'lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta'lim berish vositalari</i> | Ma'ruza matni, o'quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta'lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki nazorat: savol-javob |

YANGI MING YILLIKDA ROSSIYA
ma'ruza mashg'ulotining
TEXNOLOGIK XARITASI.

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|--|--|
| | <i>O'qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzuni yozib oladi |
| | 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha "Piramida" usulidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi. (2-ilova). 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha "O'rgimchak" usulidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi. (3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Navbatdagi masalani «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (4-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning baholash mezonlarini e'lon qilindi | Yozib oladi |
| | 3.3 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Aqliy xujum" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (8-ilova). | "Insert" usulida jadvalni to'ldiradi. |

MAVZU: YANGI MING YILLIKDA ROSSIYA

Reja.


1. SSSR parchalanishining dunyoning siyosiy xaritasiga va kuchlar balansiga keskin ta'siri.
2. Rossiya va NATO munosabatlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga yangi ming yillikda Rossiyaning geosiyosiy o'rni xususida tushuncha berish va mavzu haqida ko'nikmalarni shakllantirish

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar yangi ming yillikda Rossiyaning geosiyosiy o'rni haqida bilib oladilar, ularda mavzu haqida ko'nikmalar shakllanadi.

1-o'quv topshiriq
«Piramida» organayzerini to'ldiring


Savol. SSSR parchalanishining dunyoning siyosiy xaritasiga va kuchlar balansiga keskin ta'sirini qanday tushunasiz?




1-o'quv topshiriq

«O'rgimchak» texnologiyasi orqali quyidagi masalalarni yoriting

1 – guruxga.



2 – guruxga.



2-o'quv topshiriq**FSMU texnologivasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring**1-guruh**

| Savol | G'arbning manfaatlari tizimida AKSh va Sharq Evropa masalasi. |
|---|---|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

2-guruh

| Savol | Rossiya tashqi munosabatlari tizimida Osiyo tomon burilish |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |
| 7. | | | | |

MAVZU: YANGI MING YILLIKDA ROSSIYA

Reja.

1. SSSR parchalanishining dunyoning siyosiy xaritasiga va kuchlar balansiga keskin ta'siri.
2. Rossiya va NATO munosabatlari

1945 yil 6 va 9 avgust kunlari AQSh tomonidan Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasi tashlandi. Xirosida 90 ming, Nagasakida 75 ming kishi xalok bo'ldi. Bu sovuq urushning amaliy boshlanishi edi. 1946 yilning 5 martida Fulton universitetida (AQSh) so'zlagan nutqida kommunizmga qarshi kurashish uchun ingliz-amerika ittifoqini tuzishga chaqirdi. Bu esa sovuq urushning rasmiy boshlanishi edi. «Sovuq urush»-Sharq va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshilik, bir-biriga dushmanlik, ishonchsizlik. U o'z ichiga 1945-1991 yillarni oladi. Biroq sovet xavfi soxta edi. Aholi o'zgarishlarni kutardi. Yadro quroli sovuq urush vositasi bo'ldi. Yadro quroliga SSSR-1949 yilda, Angliya-1952 yilda, Frantsiya-1960 yilda, Xitoy- 1964 yilda, 1999 yilda Xindiston va Pokiston ega bo'ldi. 1953 yilda SSSR vodorod bombasiga ega bo'ldi. 1948 yilda AQShda qitalararo bombardimonchi samolyot- (20 km balandlik, 12 ming km uzoqlik) B-52 yaratildi. 7 yildan keyin shunday samolyot SSSR da ham yaratildi. 1957 yilda SSSRda ballistik raketa yaratildi. Bir vaqtning o'zida ikkala davlatda suv osti atom kemasi ishlab chiqildi. Raketa hujumiga qarshi mudofaa tizimi 1966 yilda SSSRda, 1974 yilda AQShda yaratildi. 70 yillarda 350-400 mld, 80-yillarda esa 600 mld. dollar sarflanardi.

AQSh Potsdam konferentsiyasi qarorlarini buzgan holda G'arbiy Germaniyada hukumat tuzishva unda pul islohoti o'tkazish haqida muzokaralar olib bordi. AQSh va g'arb mamlakatlari SSSRning Germaniya hududidan barcha okkupatsion qo'shinlarni olib chiqishni ko'zda tutuvchi tinchlik shartnomasini tayyorlash, umumgerman boshqaruv organlarini tuzish haqidagi takliflarini rad etdi. Bu hol Sovet qo'shinlari tomonidan Berlinga kirish yo'llarini qurshab olish va 1948 yilda «Berlin inqirozi»ga olib keldi.

1947 yil 12 martida AQSh Kongressida «Trumen doktrinasini» tasdiqlandi. Unga xukumatga «tashqi bosim» ga qarshi kurashayotgan «erkin xalqlar» ga yordam berish mumkin bo'ldi. Doktrina-(lotincha-ta'limot) ichki va tashqi siyosatning yo'nalishini belgilovchi qoidalar tizimi. TRUMEN AQShning 33-prezidenti, demokrat, sovuq urush va NATO tashkilotchisi, atom bombasini tashlashga buyruq bergan. 1947 yil 5 martda AQSh davlat kotibi Jorj Marshall Garvard universitetida so'zlagan nutqida Evropa iqtisodiyotini tiklash rejasini ilgari surdi. «Marshall rejasini» ga asosan Evropaning 16 mamalakati 17 mld.dollar mablag' oladigan bo'ldi.

VARShAVA ShARTNOMASI. GFRning NATOga kirishi xavotir uyg'otdi. SSSR ham xarbiy-siyosiy blok tuzishga kirishdi. VARShAVA ShARTNOMASI-1955 yil 14 mayda tashkil etildi. NATOga qarshi tuzildi. A'zolalo: SSSR, Polsha, Bolgariya, Vengriya, GDR, Ruminiya, Chexoslavakiya, Albaniya. Albaniya 1968 yildan chiqib ketdi. Sharqiy Evropa mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish maqsadida 1949 yili O'YOk tuzildi. A'zolar: SSSR, Albaniya, Bolgariya, Chexoslavakiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha. 1991 yilda tugatilgan.

Bipolyar tizim-ikki buyuk davlat qarama-qarshiligiga asoslangan va ular tomonidan yaratilgan xarbiy-siyosiy bloklar tizimi. Bu paytda Evropa davlatlari roli pasayib ketdi. Evropani birlashtirish g'oyasini Viktor Gyugo 1972 yilda tashlagan edi. 1950 yilda Frantsiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman G'arbiy evropada ko'mir va po'latni ishlab chiqarishni birlashtirish taklifi bilan chiqdi. EKPb-Evropa kumir va po'lat birlashmasi, 1951 yilda Frantsiya, GFR, Italiya va Benilyuks (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) mamlakatlari tomonidan tashkil etildi. 1957 yilda Rim protokollari deb nom olgan hujjat imzolandi. Unga asosan Evropa iqtisodiy hamjamiyati (EIH) yoki umumiy bozorga asos solindi. EIH ga 1973 yilda Angliya, Irlandiya, Daniya, 1981 yilda Gretsiya, 1986 yilda Ispaniya, Portugaliya qabul qilindi.

SSSR. Urushda 27 kishi xalok bo'ldi, 1710 shahar, 70 ming kishloq vayron etildi. 32 ming korxonalar, 65 ming km temir yo'l ishdan chiqdi. 1953 yil 5 martda Stalin vafot etdi. U mamlakatni 1922 yildan boshqarib kelayotgan edi. Ma'lum bir payt jamoaviy rahbarlik vujudga keldi. Hokimiyat sekin Xrushchev (1953-1954) qo'lga o'tdi. 1956 yilda Stalin shaxsiga sig'inish qoralandi. Madaniy hayotda ma'lum bir erkinliklarga yo'l berildi. Bu «iliqlik» davri deb nom oldi. Pasternakning «Doktor Jivago» romani Nobel mukofotiga sazovor

bo'ldi. U 1962 yilda Izmaylovsk bog'ida o'z asarlarining ko'rgazmasini o'tkazishga ruxsat oladi. Lekin ko'rgazmani buldozlar vayron qiladi.

Tashqi siyosatda Osiyo va Afrikadagi milliy ozodlik harakatlarini qo'llab quvvatladi. 1964 yilda Xrushchev lavozimidan chetlatildi. O'rnini Brejnev egalladi (1964-1982). 1972 SSSR Bilan AQSh o'rtasida yadro qurolini tarqatmaslik va sinab ko'rmaslik to'g'risida bitim imzolandi. KGB faoliyati kengaytirildi. Siyosiy tizimni demokratlashtirish, inson huquqlariga amal qilish, KGB vakolatini chetlash tarafdorlari yuzaga keldi. Ular dissidentlar deb ataldi. Dissidentlar (lotincha- muvofiq bo'lmagan, boshqacha fikrlovchi)- davlat nuqtai nazarini yoqlamaydigan, hukmron g'oyaga qo'shilmaydigan fuqarolar.

1982 yilda Brejnev vafot etdi. 1984 yilda Andropov, 1985 yilda Chernenko vafot etdi. 1985 yilda xukumat tepasiga Gorbachev keldi. Uning tashabbusi bilan 1985 yil aprelida «qayta qurish» boshlandi. Gorbachev 1990 yilda tinchlik sohasidagi faoliyati uchun Nobel mukofoti oldi.

NATO-Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti. 1949 yil 4 aprelda tashkil qilingan. AQSh tarixda birinchi bor tinch davrda Evropa davlatlari Bilan harbiy ittifoqqa kirdi. A'zolar: AQSh, Kanada, Belgiya, Angliya, Daniya, Frantsiya, Islandiya, niderlandiya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Lyuksemburg. Keyinchalik Gretsiya (1952), Turkiya (1952), GFR (1955), Ispaniya (1986) qo'shildi. SSSRga qarshi harbiy-siyosiy blokning yaratilishi tugallandi. NATO amalda Evropa integratsiyasi yo'lidagi ilk qadam bo'ldi. Milliy suverenitet eskirib qolgan tushuncha deb e'lon qilindi. U «atlantizm» tushunchasi Bilan almashtirildi. Atlantizm-g'arb qadriyatlarini va demokratiyasini muhofaza qilishning umumiy manfaatlarini bo'ysundirilishini anglatadi.

VARShAVA ShARTNOMASI. GFRning NATOga kirishi xavotir uyg'otdi. SSSR ham xarbiy-siyosiy blok tuzishga kirishdi. VARShAVA ShARTNOMASI-1955 yil 14 mayda tashkil etildi. NATOga qarshi tuzildi. A'zolar: SSSR, Polsha, Bolgariya, Vengriya, GDR, Ruminiya, Chexoslovakiya, Albaniya. Albaniya 1968 yildan chiqib ketdi. Sharqiy Evropa mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish maqsadida 1949 yili O'YOK tuzildi. A'zolar: SSSR, Albaniya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha. 1991 yilda tugatilgan

Bipolyar tizim-ikki buyuk davlat qarama-qarshiligiga asoslangan va ular tomonidan yaratilgan xarbiy-siyosiy bloklar tizimi. Bu paytda Evropa davlatlari roli pasayib ketdi. Evropani birlashtirish g'oyasini Viktor Gyugo 1972 yilda tashlagan edi. 1950 yilda Frantsiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman G'arbiy evropada ko'mir va po'latni ishlab chiqarishni birlashtirish taklifi bilan chiqdi. EKPB-Evropa kumir va po'lat birlashmasi, 1951 yilda Frantsiya, GFR, Italiya va Benilyuks (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) mamlakatlari tomonidan tashkil etildi. 1957 yilda Rim protokollari deb nom olgan hujjat imzolandi. Unga asosan Evropa iqtisodiy hamjamiyati (EIH) yoki umumiy bozorga asos solindi. EIH ga 1973 yilda Angliya, Irlandiya, Daniya, 1981 yilda Gretsiya, 1986 yilda Ispaniya, Portugaliya qabul qilindi.

1962 yildan «sovuq urush» holatidan chiqish tendentsiyasi yuz berdi. 1963 yilda Moskva-Vashington telefon liniyasi ishga tushdi. 1969-1979 yillarda munosabatlar ijobiy tomonga o'zgardi, va u «detant»- yumshatish (frantsuzcha) deb nom oldi. Nikson 1972 yilda Moskvaga, Brejnev 1973 yilda AQSh ga tashrif bilan keldi. AQSh prezidentlaridan Nikson, Ford, Bush, Reygan Xitoyga tashrif buyurib uni o'z ittifoqchisiga aylantirishga urinib ko'rdi. 1975 yil 1 avgustda AQSh, Kanada hamda Evropaning 35 davlati ishtirokida Xelsinki bitimi imzolandi. J. Bush 1991 yil yanvarda Kongressga yo'llagan xatida sovuq urush tugaganini e'lon qildi.

Birlashgan millatlar atamasi ilk bor 1942 yil 1 yanvarda vashington deklaratsiyasida paydo bo'ldi. 1945 yil iyunda BMT nizomi qabul qilindi va 24 oktyabrdan kuchga kirdi. Bosh Assambleya Nyu-Yorkda joylashgan. Xavfsizlik kengashi a'zolari: SSSR, AQSh, Xitoy, Angliya, Frantsiya. 1975 yildan buyon «katta ettilik»-AQSh, Kanada, Angliya, Frantsiya, GFR, Italiya, Yaponiya mamlakatlari anjumani o'tkazilmoqda. BMT faoliyati:

1960- Mustamlaka xalqlarga mustaqillik berish to'g'risida Deklaratsiya

1981- Yadro katastrofasini oldini olish to'g'risida

1983- Yadro urushini qoralash to'g'risida

1990-99- BMT va xalqaro huquq o'n yilligi

MAVZU:

**GEOSIYOSIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA AQSH
NING ROLI.**

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| <i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg'ulot shakli</i> | Ma'ruza |
| <i>Ma'ruza rejasi</i> | 1. AQSh tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi. 2. Jahon siyosatida etakchilik uchun kurash |
| <p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga geosiyosiy munosabatlar tizimida AQShning tutgan o'rnini masalasi, uning jahon siyosatiga ta'siri, Markaziy Osiyodagi siyosatining mohiyati xususida talabalarga ma'lumot berish</p> | |
| <p><i>Pedagogik vazifalar::</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalarga geosiyosiy munosabatlar tizimida AQShning tutgan o'rnini masalasini taxlil etish • AQShning jahon siyosatiga ta'siri, Markaziy Osiyodagi siyosatining mohiyati xususida talabalarga ma'lumot berish o'rnini, bugungi kunning dolzarb masalalari haqida bilimni shakllantirish | <p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar geosiyosiy munosabatlar tizimida AQShning tutgan o'rnini masalasi, etakchilik uchun kurash tarixidan voqif bo'lishadi. • Talabalar AQSh ning jahon siyosatiga ta'siri, Markaziy Osiyodagi siyosatining mohiyati xususida, tomonlarning o'zaro manfaatlari xususida ma'lumotga ega bo'lishadi. |
| <i>Ta'lim berish usullari</i> | “Baliq skeleti”, “Zinama-zina”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalardan foydalangan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta'lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta'lim berish vositalari</i> | Ma'ruza matni, o'quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta'lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki nazorat: savol-javob |

“Geosiyosiy munosabatlar tizimida AQSh ning roli.
” *ma’ruza mashg‘ulotining*
TEXNOLOGIK XARITASI.

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|---|--|
| | <i>O‘qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o’quv mashg‘ulotining maqsadi va o’quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.4. Mashg‘ulotni o‘tkazish shaklini e’lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo’yicha ma’ruza qiladi (2-ilova) Ma’ruza bo’yicha “ baliq skeleti ” usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: AQSh da geosiyosiy munosabatlar tarixi rivojining davrlarini tahlil qiling? (3-ilova). 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo’yicha ma’ruza qiladi (5-ilova). Ma’ruza bo’yicha « Zinama-zina ” texnologiyasidan foydalangan xolda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: AQSh ning jaxon siyosatini belgilashga qaratilgan tashqi siyosatining yo‘nalishlarini izoxlang? (6-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Geosiyosiy munosabatlar tizimida AQSh ning roli masalasini «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (7-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo’yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning baholash mezonlarini e’lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (8-ilova) | Javob yozadi |
| | 3.4 Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Aqliy xujum” usulida jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi (9-Ilova). | ”Insert” usulida jadvalni to‘ldiradi. |

MAVZU: «Geosiyosiy munosabatlar tizimida AQSh ning roli»**Reja.**

1. AQSh tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi.
2. Jahon siyosatida etakchilik uchun kurash

• **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarga geosiyosiy munosabatlar tizimida AQShning tutgan o'rnini masalasi, uning jahon siyosatiga ta'siri, Markaziy Osiyodagi siyosatining mohiyati xususida talabalarga ma'lumot berish **O'quv faoliyatining natijasi:** Talabalar geosiyosiy munosabatlar tizimida AQShning tutgan o'rnini masalasi, etakchilik uchun kurash tarixidan voqif bo'lishadi.


Talabalar AQSh ning jahon siyosatiga ta'siri, Markaziy Osiyodagi siyosatining mohiyati xususida, tomonlarning o'zaro manfaatlari xususida ma'lumotga ega bo'lishadi

Rejaning 1-masalasi bayoni. AQSh tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi.

AQSh ning tashkil topishi. Xududga ko'chib kelgan axolining tarkibi. Mamlakat rivojini belgilab bergan tabiiy-iqtisodiy omillar. Chet el investitsiyalari. AQSh tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi. Jahon siyosatida etakchilik uchun kurash: Monro doktrinasi, Xey doktrinasi, Vilsonning tinchilik dasturi, Daues va Yung rejaliri, Lend-Liz haqidagi hujjat, Malshal rejasi, Trumen doktrinasi, NATO, SEATO. Kuch ishlatish siyosati va uning barbod bo'lishi. «N500-75» dasturining mohiyati. Evrosiyo geostrategiyasi.

o'quv topshiriq

“Baliq skeleti” texnologiyasidan foydalanib AQSh ning geosiyosiy munosabatlar tarixiga murojat qilgan xolda uning jaxon siyosatini belgilashdagi etakchilik mavqei mezonlarini izohlang



Rejaning 2-masalasi: Jahon siyosatida etakchilik uchun kurash


Bugungi kunda, AQSh Markaziy Osiyo mintaqasida kuchli pozitsiyani egallashga intilmoqda. Uning bu harakatlarini amalga oshirishida, avvalo, AQShning katta harbiy-iqtisodiy salohiyati, qolaversa, uning halqaro sahnadagi kuchli siyosiy avtoriteti qo‘l kelishi mumkin. Avval, Rossiya AQShning bu mintaqadagi har qanday hatti-harakatiga qarshilik qilgandi. Ammo, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarida demokratik islohatlarni olib borish shiori AQSh uchun yangi imkoniyatlarni ochdi. Shu o‘rinda, AQShning pozitsiyasi kuchayishi natijasida Rossiyaning Markaziy Osiyodagi rolini susayishini ham ta’kidlab o‘tish joiz. O‘zining juda qulay jo‘g‘rofiy holatiga qaramasdan, Rossiyada mavjud ichki muammolari tufayli, Kreml Markaziy Osiyoga sarmoya kiritish va mintaqa davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bobida AQShga munosib raqobat ko‘rsata olmayapti.

Umuman olib qaralganda, Jorj Bush ma’muriyatining Markaziy Osiyoda olib borayotgan tashqi siyosati, ayniqsa iqtisodiyot sohasida, nisbatan muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin. Birinchi navbatda, AQShning Markaziy Osiyo davlatlari bilan sezilarli darajada savdo va investitsion aloqalari kuchaydi. Buning sababi, AQSh ma’muriyati, Kongress va Davlat departamenti tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoya kiritish siyosatining puxta ishlab chiqilganligi, Markaziy Osiyo davlatlarida iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy dasturlarni amalga oshirish uchun mablag‘ ajratish va beg‘araz yordam ko‘rsatish siyosati samarasi deb e’tirof etish mumkin. Shuningdek, AQSh Savdo Vazirligi nazorati ostida Amerika va Markaziy Osiyo savdo elitasi o‘rtasida o‘rnatilgan hamkorlik ham ikki tomonlama munosabatlar rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Garchi, o‘rta biznes elitalar o‘rtasidagi hamkorlik bobida AQSh raqib davlatlar Rossiya va Xitoyga imkoniyatni boy bersa hamki, Amerika savdo agentliklari Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha turli xil dasturlarni ishlab chiqqan va ular ko‘lami boshqa davlatlarga qaraganda ko‘p.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, AQSh siyosatshunoslari mamlakat tashqi siyosatini ishlab chiqish jarayonida hamisha faol ishtirok etganlar. AQSh siyosatshunoslari va ilmiy doiralarida Amerikaning Markaziy Osiyoda olib borayotgan siyosati nechog‘li to‘g‘ri ekanligi hususida yakdil fikr mavjud emas. Fukuyama, Xantington, Bjezinskiy, Xomskiy, Byukenen kabi mashhur siyosatshunoslar turli xil pozitsiya va fikrlarni bildirishadi. Ba’zi birlari, AQShning Markaziy Osiyodagi siyosatini “xaos” va “ongli, ratsional ishlab chiqilmagan” deb tanqid kilsa, qolganlari esa J.Bushning Markaziy Osiyoga qaratilgan siyosatiga ijobiy baho beradi.

2-o‘quv topshiriq

“Zinama-zina” texnologiyasidan foydalangan holda AQSh ning geosiyosiy munosabatlar tarixiga murojat qilgan xolda uning jaxon siyosatini belgilashdagi belgilang



o'quv topshiriq

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

| Savol | AQSh tashqi siyosatida muxim axamiyat kasb etgan doktrinalarning axamiyati |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

2-guruh

| Savol | AQSh tashqi siyosatida muxim axamiyat kasb etgan harbiy-siyosiy tashkilotlar |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

7-ilova:

Umumlashtiruvchi savollar:

1. AQSH tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi.
2. Jahon siyosatida etakchilik uchun kurash: Monro doktrinasi, Xey doktrinasi, Vilsonning tinchilik dasturi, Daues va Yung rejali, Lend-Liz haqidagi hujjat, Malshal rejasi, Trumen doktrinasi, NATO, SEATO.
3. Kuch ishlatish siyosati va uning barbod bo'lishi.
4. «N500-75» dasturining mohiyati.
5. Evrosiyo geostrategiyasi

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |

MAVZU: Geosiyosiy munosabatlar tizimida AQSh ning roli***Reja.***

1. AQSh tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi.

2. Jahon siyosatida etakchilik uchun kurash

Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalari. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab Buyuk Britaniyaning mustamlakasi bo'lgan Shimoliy Amerikada yagona ichki bozor shakllana boshladi, savdo aloqalari rivojlandi. Ayni paytda Amerikaga yevropaliklarning ko'chib kelishi boshlangan davrdan keyingi ikki asr davomida ko'chib kelganlarning yagona tarixiy taqdiri ham yuzaga keldi. Chunonchi, ingliz tili umumiy tilga aylandi. Yevropadan ko'chib kelganlar endi o'zlarini "amerikalik" deb atay boshladilar. Amerikaliklarning o'ziga xos turmush tarzi ham shakllandi. Hududning umumiyliigi, mustamlaka-larning iqtisodiy va xo'jalik manfaatlari, til va dinning yagonaligi yangi millat – amerika millatining shakllanishiga olib keldi.

Mustaqillik uchun kurashning yetilishi. Buyuk Britaniya qirollik hukumati mustamlakalardan olinadigan daromadni tobora ko'paytirishga urindi. Bu esa metropoliya va mustamlaka shtatlar o'rtasidagi nizoni tobora kuchaytira boshladi.

1763-yilda qirol mustamlakalardagi yevropaliklarning Amerika g'arbiga siljishini taqiqlovchi qaror chiqardi. Bu qaror mahalliy hindular bilan urush kelib chiqishining oldini olishi kerak edi. Mamlakat g'arbida juda ko'p yerlar bo'sh yotardi. Ko'chib borgan yevropaliklar qirol hukumatining taqiqlov qarorini o'zlarining haq-huquqlarini nazar-pisand qilmaslik, deb qabul qildilar.

Metropoliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish maqsadida 1765-yilda amerikalik inglizlar "Ozodlik farzandlari" deb ataluvchi tashkilot tuzildi. Bu tashkilot metropoliyadan olib kelinayotgan ingliz tovarlarini boykot qilish harakatini boshqarib turdi. Bunga javoban metropoliya hukumati mustamlakalar savdo portlarini yopib tashladi. Bu hol mustamlaka shtatlar iqtisodiy ahvolidan yomonlashuviga olib keldi.

Mustaqillik uchun urushning boshlanishi. 1774-yilda 13 shtat vakillari Filadelfiya shahrida I Kontinental Kongressga yig'ilishdi. Kongress metropoliyaning majburetuvchi qonunlariga itoat etish majburiy emasligi haqida qaror qabul qildi.

Qirol hukumati mustamlaka shtatlar hukumatlari bilan kelishuv yo'lini izlash o'rniga mustamlakalarni taslim etish siyosatini yuritdi va 1775-yilning aprelida qirol qo'shinlari ularga qarshi urush harakatlarini boshladi. Shunday sharoitda Filadelfiya shahrida II Kontinental Kongress chaqirildi. Kongress qatnashchilari urush boshlashga ovoz berdilar va virginiyalik polkovnik Jorj Vashingtonni (1732-1799) Amerika Qurolli Kuchlarining Bosh qo'mondoni etib tayinladilar. Shu tariqa Mustaqillik urushi boshlandi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi. 1776-yilning 10-may kuni Kongress Buyuk Britaniyadan ajralishga va mustaqil davlat tuzishga chaqiruvchi qaror qabul qildi. Bu qarorni msman e'lon qiluvchi

Bayonotnoma ham tayyorlandi. 1776-yilning 4-iyulida e'lon qilingan bu hujjat "*Mustaqillik Deklaratsiyasi*" deb ataldi. Deklaratsiya yangi davlat – Amerika Qo'shma Shtatlarining tuzilganligini butun dunyoga ma'lum qildi.

1776-yildan boshlab 4-iyul Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Amerika inqilobining xarakteri va o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqillik urushi ayni paytda burjua inqilobi ham edi. Bu inqilob, birinchidan, milliy mustaqillikni ta'minladi, ikkinchidan esa bozor munosabatlarining rivojlanishiga xalaqit berayotgan barcha to'siqlarni yo'q qildi. Inqilobga burjuaziya va plantator – quldorlar boshchilik qildi. Xalq ommasi esa uning harakatlantiruvchi kuchi bo'ldi. Amerika burjua inqilobining o'ziga xos xususiyati – bu uning milliy-ozodlik urushi shaklida o'tganligida edi.

Yevropa davlatlarining urushga munosabatlari. Mustaqillik urushi davrida AQSH chet el davlatlari madadiga ham tayandi. 1776-yilda Benjamin Franklin Fransiyaga elchi sifatida jo'natildi. Fransiyaning asosiy maqsadi, o'zining azaliy va xavfli dushmani – Buyuk Britaniyani zaiflashtirish edi. Shu tufayli Fransiya vaqtini boy bermay AQSHga yordam ko'rsata boshladi. Hatto 1778-yilda bu ikki davlat o'rtasida "*Do'stlik va Tijorat Bitimi*", keyinroq esa "*Ittifoq Shartnomasi*" ham imzolandi. Buyuk Britaniyaning zaiflashuvidan Ispaniya va Rossiya ham manfaatdor edi. Shuning uchun ham ular AQSHga nisbatan do'stona yo'l tutishdi. Bu esa AQSHga ham harbiy, ham moddiy, ham ma'naviy madad bo'ldi.

Urushning tugallanishi. 1782-yilda Amerika va Fransiya qo'shinlari inglizlarning asosiy kuchlarini taslim etdi. Natijada qirol hukumati muzokaralar boshlashga majbur bo'ldi. Shu tariqa urush tugadi. Tinchlik muzokaralari Parij shahrida o'tkazildi. Nihoyat, 1783-yilning 3-sentabrida AQSH va Buyuk Britaniya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Buyuk Britaniya AQSH davlatining tuzilganligini, uning mustaqilligini, suverenitetini tan oldi.

AQSH Konstitutsiyasining qabul qilinishi. 1787-yili Filadelfiya shahrida mamlakat shtatlari vakillarining Ta'sis Konventi chaqirildi. Uning ishida barcha shtatlardan saylangan 55 nafar vakil qatnashdi. Ular AQSH Konstitutsiyasini tayyorlash ishini nihoyasiga yetkazishlari lozim edi. Shunday bo'ldi ham. Uzoq davom etgan fikr-mulohaza va tortishuvlardan so'ng AQSHning qonun chiqaruvchi hokimiyat organi -Kongressning, federal hukumatning, Oliy Sudning vakolatlari hamda shtatlar bilan markaziy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar xususida yagona kelishuvga erishildi. Va nihoyat, 1787-yilda AQSH Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Davlat tuzumi. Konstitutsiya AQSHda respublika tuzumini o'rnatdi. Ijro etuvchi hokimiyatni 4 yil muddatga saylanadigan Prezident boshqaradigan bo'ldi. Prezident keng vakolatlarga (armiya va tlotning Oliy bosh qo'mondoni, xalqaro shartnomalar tuzish, barcha vazirlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilish va hokazo) ega bo'ldi. 1789-yilda Jorj Vashington AQSHning birinchi Prezidenti etib saylandi. Oliy Qonun chiqaruvchi hokimiyatning ikki palatali Kongress tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Yuqori palata "Senat", quyi palata esa "Vakillar palatasi" deb ataldi. Senatga har bir shtatdan ikki kishi, Vakillar palatasiga esa deputatlar shtatlar aholisining soniga mos ravishda saylanardi. Oliy Sudga katta vakolatlar berildi. Ulardan biri AQSH qonunlarining va Prezident farmonlarining Konstitutsiyaga mos kelishini nazorat qilib borish ekanligi ham belgilab qo'yildi.

Mamlakatda ishlab chiqarish hajmi o'sdi. Ayrim sohalar — avtomobilsozlik, rezina, kimyo, po'lat quyish sanoatlari, shuningdek, kemasozlik, elektrotexnikada ayniqsa yuqori natijalarga erishildi. Ular AQSh sanoatining o'zagini tashkil qildilar. Olti yil ichida — 1914-yildan 1920-yilgacha mamlakat milliy boyligi 2,5 baravar oshdi. 1920-yilda AQShda butun dunyoda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning 47%i yaratildi. Boshqa ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha AQShning yutuqlari yanada salmoqliroq edi. Mamlakatda dunyodagi jami avtomobillarning 80%i, neftning 67%i ishlab chiqarilardi. Amerika floti urush davomida 10 baravarga o'sdi. AQSh Angliya qatori dunyodagi yetakchi dengiz davlatiga aylandi. Jahon oltin zapasining qariyb 50%i AQShning oltin xazinasi saqlanuvchi Fort-Noksdagi jamlandi. AQSh jahonning moliyaviy markazi, jahon bozorining poydevoriga aylandi.

MAVZU

XIToyNING GEOSTRATEGIK SIYOSATI VA UNING MOHIYATI

1.1. Ta`lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|--|
| Mashg`ulot vaqti-2 soat | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| Mashg`ulot shakli | Ma`ruza |
| Nazariy mashg`ulot rejasi | <ol style="list-style-type: none"> 1. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining spetsifik xususiyat-ari. 2. Yaponiyaning jahon iqtisodiyoti va siyosiy maydonidagi tutgan mavqeidagi nomutanosibliklar. |
| <p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarga geosiyosiy munosabatlar tizimida Xitoyning tutgan o`rni masalasi, uning jahon siyosatiga ta`siri, Markaziy Osiyodagi siyosatining mohiyati xususida talabalarga ma`lumot berish, shuningdek Xitoy oldida turgan muammolar xususida ma`lumot berish. Rossiya-Yaponiya munosabatlarida «Uchinchi kuch» omili-Portsmut, Potsdam, Yalta bitimlari va uning mamlakat taqdiriga ta`sirini tushuntirib berish.</p> | |
| Ta’lim berish sharoiti | Texnik ta‘minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya |
| Monitoring va baholash | Og‘zaki nazorat: savol-javob |

O‘ZBEKISTON VA SHHT GEOSIYOSIY ISTIQBOLLARI
mavzusida nazariy mashg‘ulotning

TEXNOLOGIK XARITASI

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|---|--|
| | <i>O‘qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o’quv mashg‘ulotining maqsadi va o’quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shaklini e’lon qiladi. | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 3. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo‘yicha ma’ruza qiladi (2-ilova) Ma’ruza bo‘yicha “Tarmoqlash” usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: ShHT tashkil etilishining asosiy bosqichlari va unga extiyoj nimada edi? 3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruza qiladi (4-ilova). Ma’ruza bo‘yicha «Zinama-zina» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: ShHT tashkil etilishi, to‘zilishi va tamoyillari? (5-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzuda bayon etilgan masalalarni mustahkamlash «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (6-ilova). Bu texnika guruhlarda ijodiy ishlashga yordam beradi. Qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning olgan baholarini e’lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova) | Javob yozadi |
| | 3.4 Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Insert” usulida jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi (8-ilova). | “Insert” jadvalni to‘ldiradilar |

Mavzu: O‘ZBEKISTON VA SHHT GEOSIYOSIY ISTIQBOLLARI

Reja.

1. ShHT ning tashkil etilishi ob’ektiv zaruriyat sifatida.
2. ShHT ning mintaqa xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati.
 - **O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** Talabalarga geosiyosiy munosabatlar tizimida ShHT ni tutgan o‘rni, uning to‘zilishini ob’ektiv zaruriyat ekanligini, ShHT va O‘zbekiston munosabatlari, amal qiladigan tamoyillar xususida ma’lumot berish **O‘quv faoliyatining natijasi:** Talabalar ShHT ning tashkil etilishi ob’ektiv zaruriyat sifatida. Tashkilotning mintaq va jahon siyosatini belgilashdagi ahamiyati. ShHT ning iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntirib etishadi, ShHT ning mintaq xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati, ShHT va Osiyo integratsiyasi masalalari, O‘zbekistonning bu tizimdagi iqtisodiy va xavfsizlikni ta’min etish bobidagi manfaatlari xususida ma’lumotga ega bo‘lishadi


Mavzuning 1-masalasi. ShHT ning tashkil etilishi ob’ektiv zaruriyat sifatida.

Beshta davlat boshliqlarining Shanxaydagi ushbu uchrashuvida harbiy sohada o‘zaro ishonchni mustahkamlash haqidagi bitimni imzolash bilan birga «Shanxay beshligi» doirasida har yili uchrashuv o‘tkazilib turishga kelishib olindi va bu uchrashuv mexanizmi «Shanxay beshligi» forumi nomini oldi. Bu forum doirasidagi ikkinchi uchrashuv Moskvada 1997 yil 24-25 aprelda o‘tkazilib, unda bir tomondan Xitoy, ikkinchi tomondan Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston mamlakatlari vakillarining birgalikdagi delegatsiyasi ishtirok etdi va chegara rayonlarida umummilliy manfaatlardan kelib chiqib «chegara rayonlarida qurolli kuchlarni qisqartirish to‘g‘risida»gi Moskva bitimi imzolandi. XXRning faqat Markaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy chegara o‘zunligi 3 700 km.ni , Rossiyani ham qo‘shib hisoblaganda esa, to‘zilmaga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi chegara chizig‘ining o‘zunligi 7000 km.ni tashkil etadi. Ushbu bitimga binoan har ikkala tomon ham chegara hududlardagi harbiylar sonini o‘zaro do‘stona qo‘shnichilik munosabatlariga muvofiq keladigan darajagacha qisqartirdilar. Amalda, ushbu chegara hududlardagi qurolli kuchlar, faqat mudofaa funksiyasini bajarishi lozimligini anglatardi:

- tomonlar bir-biriga nisbatan qurolli kuchlar bilan tahdid qilish yoki uni qo‘llashdan voz kehdilar;
- harbiy ustunlikka erishish uchun bo‘lgan intilishga va hatti-harakatlarga barham berildi;
- chegara hududlarida joylashtirilgan harbiy kontingentlar bir-biriga nisbatan hujum qilish holatida bo‘lmasligini ta’minlashga.

“Tarmoqlash” texnologiyasi

Mamlakat o‘rtasidagi xamkorlikni kuchaytirishda ShHT ning imkoniyatlari nimalardan iborat?




mavzuning 2-masalasi. ShHT ning mintaqa xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati.

Shanxay hamkorlik tashkilotining asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

- A’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytirish, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash;
- mintaqada tinchlikni saqlash va mustahkamlash, xavfsizlikni barqarorlikni ta’minlash maqsadida, ko‘ptomonlama hamkorlikni rivojlantirish, demokratik tamoyillarga asoslangan yangi, adolatli va oqilona siyosiy, iqtisodiy halqaro tartibotni o‘rnatishga ko‘maklashish;
- halqaro terrorizm, separatizm va ekstremizm, ularning barcha ko‘rinishlariga, noqonuniy narkotika va qurol-yarog‘ savdosi, transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlariga, shuningdek noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashish;
- siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquqni muhofaza qilish, tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniyat, ilmiy-texnikaviy, fan va ta’lim, energetika, transport, moliya-kredit sohalarida va shu kabi umumiy manfaatlar mavjud bo‘lgan barcha jabhalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish;

“Yahlitlik” ShHT asosiy maqsad-vazifalari, tamoyillarini aniqlang?



FSMU texnologiyasi

6-ilova

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

1-guruh

| Savol | ShHT tashkil etilishining asosiy sabblari? |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

2-guruh

| Savol | ShHT tizimida O'zbekiston imkoniyatlari? |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

7-ilova:

Umumlashtiruvchi savollar

1. ShHT ning tashkil etilishiga ob'ektiv zaruriyat nimada?
2. Tashkilotning mintaq va jahon siyosatini belgilashdagi ahamiyati?
3. ShHT ning iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati?
4. ShHT ning mintaq xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati?

8-ilova:

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:
V – bilaman
+ - men uchun yangi ma'lumot
- - - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi
? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.
2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |

Mavzu: **O‘ZBEKISTON VA SHHT GEOSIYOSIY ISTIQBOLLARI**

Reja.

1. ShHT ning tashkil etilishi ob’ektiv zaruriyat sifatida.
2. ShHT ning mintaqa xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati.

SHanxay hamkorlik tashkilotining xalqaro maydonda va mintaqada qanday vazifalarni bajarishi, unga a’zo davlatlarning o’z oldiga qo’ygan vazifalari va bundan ko’zlangan maqsadi nima ekanligi, umuman SHHT haqida bir fikrga kelish uchun avvalambor, bu tashkilotning tarixiga nazar tashlashga to’g’ri keladi.

SHanxay hamkorlik tashkilotining vujudga kelish tarixini o’rganish, tahlil qilish tashkilotning tuzilishi-o’tgan o’n yillar davomida Yevroosiyo mintaqasida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning natijasi, zaruriyati ekanligini ko’rsatadi.

XX asrning 90-yillari boshlarida Rossiya Federatsiyasi (RF) va Xitoy Xalq Respublikasi (XXR), shuningdek Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston davlatlarining o’zaro hududiy chegara rayonlari va ichki siyosatlarida turli nizolar kelib chiqishini oldini olish ushbu davlat rahbarlarining oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylanib qolgan edi. Markaziy Osiyo davlatlarining o’z mustaqilliklarini qo’lga kiritishi XXR uchun kutilmagan bir hol ediki, bu holat azaldan Xitoyning g’arbiy qismida yashab kelayotgan turkiyzabon xalqlar milliy tafakkurining uyg’onishiga va miliy masalada ayirmachilik kayfiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin edi. Agarda jarayon shu shaklda rivojlansa-tashqi omillar ta’sirida XXRning g’arbiy rayonlarida yuzaga kelayotgan vaziyatni ijobiy tomonga yo’naltirishning imkoni bo’lmay qolardi va bu holat Xitoy rahbariyati manfaatlariga umuman to’g’ri kelmas edi. Bu jarayonni o’z vaqtida payqay olgan XXR davlat rahbarlari bunday qiyin sharoitdan chiqib ketish yo’lini topish maqsadidagi sa’y-xarakatlari Xitoy, Rossiya, Qozog’iston, Qirg’iziston va Tojikiston davlatlari ishtirokidagi «SHanxay beshligi» tuzilmasini tashkil etilishiga olib keldi.

«SHanxay beshligi» tuzilmasi 1996 yil 26 aprelda Xitoy, Rossiya, Qozog’iston, Qirg’iziston va Tojikiston davlatlari rahbarlarining SHanxay uchrashuvida tuzilgan bo’lsada, bu jarayonning boshlanishi 1964 yilning fevralidagi Xitoy va Sovet Ittifoqi o’rtasidagi chegara masalalari bo’yicha o’tkazilgan muzokaralarga borib taqaladi. Afsuski, ayrim sabablarga ko’ra bu muzokoralar doirasida 20 yil mobaynida siljish bo’lmadi.

Xitoy-sovet munosabatlaridagi bu sohadagi sezilarli o’zgarishlar atigi 80-yillarning ikkinchi yarmidan, ya’ni Sovet Ittifoqi davlati tepasiga M.S.Gorbachev kelganidan keyingina jonlandi. Aynan shu davrdan boshlab muzokoralar olib borish faollasha boshladi. 1989 yil mayda Mixail Gorbachevning Xitoyga rasmiy tashrifi davomida tomonlar SSSR va Xitoy o’rtasida sovet-xitoy davlatlari chegarasining SHarqiy qismi to’g’risida SHartnoma imzoladilar. Ayni vaqtda tomonlar sovet-xitoy chegarasiga tegishli 100 kilometrlik hududda xarbiy kuchlarini minimal darajagacha, ya’ni ikki davlat o’rtasida do’stona qo’shnichilik munosabatlarini hamda chegara hududlarda aholining tinch xo’jalik faoliyati bilan shug’ullanishini ta’minlaydigan darajagacha qisqartirishga kelishib olindi. Ushbu bitim doirasidagi vazifalarni amalga oshirish yuzasidan 1989 yilning noyabrida tomonlar muzokara stoliga o’tirdilar. Aynan ushbu voqea «SHanxay beshligi» shaklanishiga rasmiy turki bo’ldi, ya’ni chegaralarda harbiy kuchlarni qisqartirish va harbiy sohada o’zaro ishonchni mustahkamlash kabi sovet-xitoy muzokoralarining kun tartibidagi masalalar yangi tuzilma - «SHanxay beshligi» forumi uchun ham asosiy masalalar bo’lib qoldi. O’n ikki yillik tarixi davomida ushbu forum o’zining uch bosqichdan iborat rivojlanish yo’lini bosib o’tdi.

Birinchi bosqich – 1989 yil noyabdan 1991 yil dekabrigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davrda, Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin xitoy-sovet munosabatlari «yakkama-yakka» tartibda olib borildi.

1989 yil noyabrida Sovet Ittifoqi va Xitoy o’rtasida chegara xududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish va harbiy sohada o’zaro ishonchni mustahkamlash to’g’risida muzokoralar boshlandi. Muzokoralar jarayoni juda jo’shqin tusda o’tdi va 1990 yil 24 aprelda sovet-xitoy chegara xududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish va harbiy sohada o’zaro ishonchni mustahkamlashning ustuvor yo’nalishlari

to'g'risida sobiq Sovet Ittifoqi va Xitoy Xalq Respublikasi hukumatlari o'rtasida SHartnoma imzolandi.

Ikkinchi bosqich – 1991 yil dekabrda 1997 yil aprelgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda muzokaralar ikki tomonlama, ya'ni bir tomondan Xitoy va ikkinchi tomondan – Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlarining birgalikdagi delegatsiyasi o'rtasida olib borildi. 1991 yil dekabrda Sovet Ittifoqi tarqalgandan keyin bu davlatlar Xitoy bilan chegara masalalarini, shuningdek chegaradosh hududlarda harbiylar sonini kamaytirish va harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash borasida muzokoralarni davom ettirish uchun birgalikdagi delegatsiyani shakllantirgandilar.

SHu bilan birga muzokoralar davomida kun tartibidagi masalalarning oxirgi bloki bo'yicha, ya'ni 1990 yil aprelda Xitoy va Sovet Ittifoqi tomonidan imzolangan «Asosiy tamoyillar to'g'risidagi bitim»ga asosan tomonlar harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash bo'yicha yagona to'xtamga keldilar hamda 1996 yil 26 aprelda SHanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston liderlarining birinchi uchrashuvida «chegara rayonlari bilan bog'liq hududlarda o'zaro harbiy sohada ishonchni mustahkamlash to'g'risida»gi bitim imzolandi⁷. Bitimga muvofiq tomonlarning chegarada joylashtirilgan qurolli kuchlari bir-birlariga hujum qilmasligi, biron bir tomonga qarshi yo'naltirilgan yoki xavf tug'diruvchi harbiy mashg'ulotlar o'tkazilmasligi kerak edi. SHuningdek, o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarning masshtabi, kuni va «ramka»si o'zaro chegaralab qo'yildi. Tomonlar chegaragacha bo'lgan 100 km masofada o'tkaziladigan muhim harbiy tadbirlardan bir-birlarini xabardor qilish; harbiy mashg'ulotlarga qo'shni davlat tomondan kuzatuvchilar taklif qilish; xavfli harbiy xarakatlardan ogohlantirish, chegarachilar va chegara hududlarga joylashtirilgan armiya harbiy xizmatchilari o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha majburiyatlar qabul qildilar.

Beshta davlat boshliqlarining SHanxaydagi ushbu uchrashuvida harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash haqidagi bitimni imzolash bilan birga «SHanxay beshligi» doirasida har yili uchrashuv o'tkazilib turishga kelishib olindi va bu uchrashuv mexanizmi «SHanxay beshligi» forumi nomini oldi. Bu forum doirasidagi ikkinchi uchrashuv Moskvada 1997 yil 24-25 aprelda o'tkazilib, unda bir tomondan Xitoy, ikkinchi tomondan Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston mamlakatlari vakillarining birgalikdagi delegatsiyasi ishtirok etdi va chegara rayonlarida umummilliy manfaatlardan kelib chiqib «chegara rayonlarida qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida»gi Moskva bitimi imzolandi. XXRning faqat Markaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy chegara uzunligi 3 700 km.ni , Rossiyani ham qo'shib hisoblaganda esa, tuzilmaga a'zo davlatlar o'rtasidagi chegara chizig'ining uzunligi 7000 km.ni tashkil etadi. Ushbu bitimga binoan har ikkala tomon ham chegara hududlardagi harbiylar sonini o'zaro do'stona qo'shnihilik munosabatlariga muvofiq keladigan darajagacha qisqartirdilar. Amalda, ushbu chegara hududlardagi qurolli kuchlar, faqat mudofaa funksiyasini bajarishi lozimligini anglatardi:

- tomonlar bir-biriga nisbatan qurolli kuchlar bilan tahdid qilish yoki uni qo'llashdan voz kechdilar;
 - harbiy ustunlikka erishish uchun bo'lgan intilishga va hatti-harakatlarga barham berildi;
 - chegara hududlarida joylashtirilgan harbiy kontingentlar bir-biriga nisbatan hujum qilish holatida bo'lmasligini ta'minlashga;
 - chegaraning har ikki tomonida yuz kilometrlik masofada joylashtirilgan quruqlikdagi, harbiy-havo, chegara qo'shinlari va Havo Hujumidan Mudofaa qiluvchi Harbiy Havo Kuchlarining shaxsiy tarkibini qisqartirishga kelishildi;
 - qisqartirish o'tkazilgandan keyin chegara hududlarida qurollanish va shaxsiy tarkibning sonini joiz bo'lgan eng maksimal darajasini belgilash;
 - qurolli kuchlarni qisqartirishning metodlari va muddatini aniqlash;
 - tomonlar chegarada joylashtirilgan qurolli kuchlari to'g'risidagi o'zaro ma'lumot almashish va bitimning ijro qilinishi yuzasidan nazorat olib borishga kelishildi.

| | |
|--------------|---|
| MA33y | «YANGI KATTA O`YIN» KONTSEPTSIYASI VA UNING GEOSIYOSIY MOHIYATI. |
|--------------|---|

Ta`lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|---|
| Mashg`ulot vaqti-2 soat | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| Mashg`ulot shakli | Mavzu bo`yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yo`zasidan seminar mashg`uloti |
| Nazariy mashg`ulot rejasi | <ol style="list-style-type: none"> 1. Markaziy Osiyo yangi siyosiy munosabatlar tizimida . 2. Markaziy Osiyoning geosiyosiy imkoniyatlari |
| <p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarga “Yangi katta o`yin” kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati, Markaziy Osiyoni yangi siyosiy munosabatlar tizimidagi o`rni, regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari va bu erda geosiyosiy manfaatlarni maqsadlari xususida tushuncha berish orqali, ularda ogohlik ko`znikmalarini shakllantirish.</p> | |
| <p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • «Yangi katta o`yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati to`g`risida ma`lumot berish • Markaziy Osiyo yangi siyosiy munosabatlar tizimida tutgan o`rni, regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari xususida tushuncha berish. | <p style="text-align: center;">O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Talabalar «Yangi katta o`yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati to`g`risida ma`lumotga ega bo`lishadi. ▪ Talabalar Markaziy Osiyoning yangi siyosiy munosabatlar tizimida tutgan o`rni, regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari xususida tushunchaga ega bo`lishadi. |
| Ta`lim berish usullari | “Tarmoqlash”, “Baliq skeleti”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalariga asoslangan munozara, suhbat, aqliy hujum, tezkor-so`rov |
| Ta`lim berish shakllari | jamoaviy, guruhlarda ishlash; yangi ped.texnologiyalari |
| Ta`lim berish vositalari | Ma`ruza matni, o`quv materiallari, marker, skotch, qog`oz |
| Ta`lim berish sharoiti | Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo`ljallangan auditoriya |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat: savol-javob |

«YANGI KATTA O‘YIN» KONTSEPTSIYASI VA UNING GEOSIYOSIY MOHIYATI»
mavzusida nazariy mashg‘ulotning

TEXNOLOGIK XARITASI

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|---|--|
| | <i>O‘qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o’quv mashg‘ulotining maqsadi va o’quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shaklini e’lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 4. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo‘yicha ma’ruza qiladi (2-ilova) Ma’ruza bo‘yicha “Tarmoqlash” usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: «Yangi Katta o‘yin» kontsepsiyasining mohiyati, uning geosiyosiy manfaatlari tizimiga nima kiradi? (3-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruza qiladi (4-ilova). Ma’ruza bo‘yicha «Baliq skeleti» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: «Yangi Katta o‘yin» kontsepsiyasining ishtirokchilari va ularning imkoniyatlari? (5-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Mavzuda bayon etilgan masalalarni mustahkamlash «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (6-ilova). Bu texnika guruhlarda ijodiy ishlashga yordam beradi Qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, bilimlarini umimlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umimlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning olgan baholarini e’lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova) | Javob yozadi |
| | 3.4 Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Insert” usulida jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi (8-ilova). | “Insert” jadvalni to‘ldiradilar |

MAVZU: “«YANGI KATTA O‘YIN» KONTSEPTSIYASI VA UNING GEOSIYOSIY MOHIYATI”

Reja.

1. Markaziy Osiyo yangi siyosiy munosabatlar tizimida .
2. Markaziy Osiyoning geosiyosiy imkoniyatlari

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talaba yoshlarga XX asr so‘ngida vujudga kelgan dunyoning siyosiy xaritasidagi keskin o‘zgarishlar, “Yangi katta o‘yin” kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati, Markaziy Osiyoni yangi siyosiy munosabatlar tizimidagi o‘rni, regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari va bu erda geosiyosiy manfaatlarni maqsadlari xususida tushuncha berish orqali, ularda ogohlik ko‘znikmalarini shakllantirish.

- ***O‘quv faoliyatining natijasi:*** Talabalar «Yangi katta o‘yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishadi, Markaziy Osiyoning yangi siyosiy munosabatlar tizimida tutgan o‘rni, regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari xususida tushunchaga ega bo‘lishadi.

Mavzuning 1-masalasi. Markaziy Osiyo yangi siyosiy munosabatlar tizimida . Mustaqillikdan keyin Markaziy Osiyoning davlatlari jaxon siyosiy maydoniga xalkaro huquqning teng ishtirokchisi, sub’ekti sifatida maydonga chiqishdi. 4 million kvadrat km dan ortiq maydonga ega bo‘lgan, tabiiy resurslarga, neft-gaz, oltin , uran qazilmalariga ega bo‘lgan bu hudud katta imkoniyatlarga ega. Shunday ekan bu xududdan jaxonning bir kator mamlakatlari o‘z manfaatlarini izlashlari turgan gap. Oldin «Katta o‘yin» tizimida CHor Rossiyasi va Angliya ishtirok etgan bo‘lsa, «Yangi katta o‘yin» kontseptsiyasida jaxonning bir qator mamlakatlari Markaziy Osiyoda keng imkoniyatlarga ega bo‘lish uchun- iqtisodiy, madaniy, siyosiy sohalarda qulay sharoitlar yaratish uchun yangidan xarakat boshlashdi.

“Tarmoqlash” texnologiyasi
«Yangi katta o‘yin» qaysi soxalarda ustunlik qilishni davo qiladi?




MAVZUNING 2-MASALASI. MARKAZIY OSIYONING GEOSIYOSIY IMKONIYATLARI

Markaziy Osiyo mintakasi boshka davlatlarning e'tiborini o'ziga jalb qilganligini quyidagi omillar bilan izohlashimiz mumkin:

- ushbu davlatlar Evrosiyoning Osiyo kismida juda muhim geostrategik joylashuviga; ular hududidan eng muhim er va xavo kommunikatsion liniyalari o'tadi;
- mintaka katta miqdordagi kimmatli metallar xom —ashyosi va energetik resurslarga ega, ayniksa Kaspiydagi neft va gaz zaxiralarini inobatga oladigan bo'lsak;
- bu mintaka hozirgi paytgacha to'liq egallab olinmagan katta xajmdagi ichki bozorga ega;
- bu davlatlarning ishlab chikrish va kommunikatsiya tarmoklarini nazorat qilish orkali, ko'shni davlatlarga xam ta'sir o'tkazish mumkin;
- mintaka juda katta miqdordagi investitsiyalarni o'zlashtira oladi, ayniksa xom —ashyo kazib olish va eksport qilish tarmoklari;
- kup yillik Rossiya ta'sirining pasayishi, bu mintakada boshka davlatlar uchun o'z faoliyatini aktivlashtirish va o'z ta'sir doirasiga olish imkoniyatini yaratmokka.

“Baliq skeleti” texnologiyasidan foydalanib, Markaziy Osiyoning geosiyosiy imkoniyatlarini, omillarni yoritib



FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

| Savol | «Yangi katta o'yin» ning moxiyatini belgilovchi geosiyosiy omillar nimalardan iborat? |
|---|---|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

2-guruh

| Savol | Markaziy Osiyoning geosiyosiy imkoniyatlari nimalar orqali namoyon bo'ladi |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

Umumlashtiruvchi savollar

1. «Yangi katta o'yin» kontsepsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati nimada?
2. Markaziy Osiyo yangi siyosiy munosabatlar tizimida qanday o'rin tutadi?
3. Regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari?
4. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi jarayonida ijtimoiy hamkorlikning ahamiyatini yoriting

9-ilova

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |

MAVZU: «YANGI KATTA O'YIN» KONTSEPSIYASI VA UNING GEOSIYOSIY MOHIYATI»

Reja.

1. Markaziy Osiyo yangi siyosiy munosabatlar tizimida .
2. Markaziy Osiyoning geosiyosiy imkoniyatlari

2001 yil 11 sentyabr voqealari global va mintaqaviy xavfsizlik haqida an'anaviy tasavvurlarni tubdan o'zgartirishga va xalqaro hamjamiyaddan xalqaro munosabatlar paradigmasini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Hozirda Markaziy Osiyo davlatlari islohotlarning o'tish davrida va effektiv xavfsizlik tizimini tuzish davrida bo'lib, bu o'z-o'zidan mintaqaning bugungi va kelajakdagi holati haqida fikr british uchun imkon beradi.

SHu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari erishgan aniq natijalar mintaqaning kelajagiga optimistik qarash uchun imkon bersa ham, bugungi kunda umumiy xavfsizlik muammolari haqida gapirishga yetarlicha sabablar mavjud.

Hozirgi kunda ba'zi tahlilchilarning ta'kidlashicha, mintaqaning kelajagini hal qilishi mumkin bo'lgan ikkita asosiy masala kun tartibida turibdi. Birinchisi, konfliktogen mintaqadagi holat

va davlatlar o'rtasidagi oddiy bo'lmagan munosabatlar; ikkinchidan, mintaqaviy va dunyoviy kuch markazlari manfaatlar muvozanatini hisobga olish.

Shu bilan birga, ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda yirik kuch markazlari va musulmon dunyosi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatib turuvchi va mintaqaviy integraöiyaning kelajagini belgilovchi bir qancha muhim argumentlar mavjudki, bulardan biri mintaqaning geostrategik joylashuvi hisoblanib, faqatgina davlatlarning geosiyosiy va geoiqtisodiy transformaöiyasida uni tashkil qiluvchi mintaqa davlatlari birlashgan holdagina rivojlanishi, geosiyosiy tenglikni va iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishi, va integraöiyalashuvi mumkin. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo hamkorligi borasidagi tizimlarning zaif tomoni shundaki, ular doirasida bir vaqtning o'zida juda ko'p muammolarni yechishga harakat qilingan va oqibatda biror bir muammo yetarli darajada o'z yechimini topmagan.

Mintaqaviy muammolar bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir, lekin tabiiyki, geosiyosiy rivojlanishga nisbatan qarashlar har xil va strategik hamkor hamda ustivor yo'nalishlarni aniqlashda milliy vektorlarning yo'nalishi turli xil bo'lishi mumkin. Uchinchidan, transport infrastrukturasi va umumiy suv va energiya tizimlari, hamda Kaspiyning kelajakdagi neft va gaz truboprovod yo'llaridan foydalanishda raqobatning mavjudligi. Har bir mintaqa davlati turli mexanizmlardan foydalanib, o'zicha integraöiyaga harakat qiladi¹. Bunday holatda, bir-birini chegarasini kesib o'tishga va savdo-sotiq qilishga turli to'siqlar paydo bo'ladi, bu esa millatlararo tanglikka va ishonchsizlik, konfliktlarga olib kelishi mumkin. To'rtinchidan, ba'zi bir davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoning yomon ahvolda ekanligi. Masalan, (Tojikiston, Qirg'iziston (qashshoqlik, ishsizlik, narkobiznes, migraöiya, tashqi qarzlarning ko'pligi)), Beshinchidan, Afg'onistondagi boshqarib bo'lmaydigan holat. Bu Markaziy Osiyo davlatlari o'z ustivor yo'nalishlarini ro'yobga chiqarishda eng asosiy to'sqinliklardan biri hisoblanadi. SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, kelajakda Afg'oniston suvdan yirik miqdorda foydalanuvchi davlatga aylanishi va bu mintaqa uchun qo'shimcha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, terrorism xavfining saqlanib qolayotganligi, Afg'oniston hududida narkotik moddalarining chiqishi ko'payganligi Markaziy Osiyo davlatlari o'z milliy va mintaqaviy xavfsizligini ta'minlash doirasini kengaytirishi zarurligini belgilaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasining geostrategik ahamiyati Xartlend va Rimlend oralig'ida ya'ni yirik davlatlarning geosiyosiy qarama-qarshiligi to'qnashgan nuqtada joylashganligidir. Mintaqa shimolda va shimoli-g'arbida Rossiya, g'arbda Kaspiy dengizi, janubi-g'arbda Eron, janubda Afg'oniston va janubi-sharqda Xitoy bilan chegaradosh¹.

Shu bilan birga, mintaqa davlatlari o'ziga xos tarzda geosiyosiy va geoiqtisodiy joylashuvga ega bo'lib, Osiyo va Yevropani bog'lab turuvchi makon hisoblanadi.

Turli toifadagi ekspertlarning ta'kidlashicha, kelajakda Markaziy Osiyoning ahamiyati yanada ko'proq oshadi. ×unki, transosiyo temiryo'l magistralining qurilishi, avtomobil yo'llarining rivojlanishi va Afg'oniston hududidan o'tuvchi transport kommunikaöiyalarining ko'payishi bilan Eron, Pokiston orqali Fors ko'rfaziga va Hind okeaniga chiqilib, mintaqa davlatlari imkoniyat darajalari yanada pqori bosqichga chiqadi.

Bundan tashqari, TRASEKA transport koridoridan to'liqroq foydalanish oqibatida mintaqa davlatlari milliy avtomobil va temir yo'llarining Yevropaga chiqishi regional transport yo'llarini xalqaro ahamiyatini oshiradi, ularning tranzit imkoniyatlarini kengaytiradi, chet el investioiyasini jalb qilish uchun muhim asos yaratadi va savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi ko'p miqtorda neft va gaz zahiralarga ega ekanligi, va hududning geostrategik jihatdan joylashgan o'rni halqaro siyosat subueklari bo'lgan davlatlarni ushbu mintaqadagi jarayonlarga ishtirok etish istagini yanada oshirib pboradi¹. ×unki ushbu davlatlarning asosiy maqsadlari geosiyosiy tomondan Markaziy Osiyo mintaqasi ustidan, geoiqtisodiy jihatdan esa mintaqaning resurslari va transport aloqalari ustidan nazorat hisoblanadi.

Bugungi kunda mintaqada juda ko'p muammolar mavjud bo'lib, ular qatorida chegara masalalarining hal etilmaganligi, suv tanqisligi, ekologik, etnomadaniy, demografik muammolar kabilarni ko'rsatish mumkin.

Mintaqa davlatlari o'zlarining geografik joylashuvlariga ko'ra, suvga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda turli imkoniyatlarga ega. SHuning uchun mintaq suv resurslaridan foydalanish borasida mintaqaviy davlatlar o'z nuqtai-nazarlarini ilgari suradilar. Bundan tashqari, ushbu muammo mintaq davlatlarining geografik xususiyatlari bilan birgalikda ikkinchi mojaro manbasi-suv muammosini keltirib chiqarmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasining suv resurslari notekis taqsimlangan. Asosiy resurslar mintaqaning janubiy-sharqiy qismining tog'li hududlariga joylashgan. Orol dengizi xavzasidagi daryolarning asosiy qismi Qirg'izistondan (30%) va Tojikistondan (50%) boshlanadi. Mintaqadagi qolgan davlatlar hududining katta qismini suvsiz va kam suvli hududlar tashkil etgan. Mintaqa davlatlarining suv resurslaridan foydalanish borasida yagona to'xtamga kelmasligi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, mintaqadagi suv inshootlarini normal texnik holatini ta'minlash uchun yetarlicha mablag' ajratilmaslik oqibatida ushbu inshootlarning buzilishi og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Ikkinchidan, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan foydalanish mintaqada davlatlari tomonidan siyosiy va iqtisodiy sohadagi mustaqillik va ustunlikka intilishlari sababli siyosiy tus olib, davlatlararo munosabatlarda ta'sir etish quroliga aylanmoqda. Xususan, Qirg'iziston va Qozog'iston 1992 yili Dublin konferenöiyasida e'lon qilingan prinöipga asoslanib, gidroresurslarni tovar deb tan olinishini tarafdori bo'lishsa, mintaqadagi qolgan davlatlar 1992 yili Olmaotada Markaziy Osiyo davlatlari vakillari tomonidan imzolangan «Suv resurslaridan birgalikda foydalanish to'g'risidagi bitim» ga suyangan holda rad etishmoqda.¹

Uchinchidan, mavjud suv resurslaridan foydalanish rejimi borasida mintaq davlatlari turli pozioiyada ekanligidir.

Tojikiston va Qirg'iziston davlatlarining mavjud resurslardan energetik maqsadda foydalanishga manfaatdor bo'lsa, qolgan davlatlarning iqtisodiy manfaatlariga irrigaöion rejimda foydalanishga mos keladi. Ushbu muammo davlatlararo munosobatlarning jiddiy keskinlashuviga ham sabab bo'lmoqda.

SHu bilan birga, Markaziy Osiyoda mavjud chegaraviy muammolar ildizi sobiq Ittifoq davriga borib taqaladi. Mintaqada hozirgi kunda amal qilinayotgan ma'muriy-hududiy bo'linish 1924 yili qabul kilingan Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetining «Ma'muriy-hududiy bo'linish to'g'risida» farmoni asosida amalga oshirilgan bo'lib, ushbu farmon mintaqada tarixan shakllangan davlatchilik munosabatlari va tub aholining etnomadaniy xususiyatlarini hisobga olmagan. Bu qaror asosida Osiyoning deyarli barcha ma'muriy tuzilmalarining hududi va chegaralari o'zgartirilgan bo'lib, mintaqada davlatchilikni

**SEMINAR
MASHG'ULOTLARI
UCHUN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI
ISHLANMASI**

SEMINAR MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| | |
|--------------|--|
| MAVZU | « GEOSIYOSAT ASOSLARI » FANI PREDMETI, OB'EKTI VA MANBALARI MANBALARI |
|--------------|--|

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| Mashg'ulot vaqti-2 soat | Talabalar soni: 25 – 35 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yo'zidan seminar mashg'uloti |
| Seminar mashg'uloti rejasini | <ul style="list-style-type: none"> • Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari va asosiy qonuniyatlari. • Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari va asosiy funksiyalari: gnoseologik funktsiya. |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Dunyoning geosiyosiy manzarasi xususida tushuncha berish geopolitikani mazmun-mohiyati, fan sifatida shakllanishi, uning manbalari, tadqiqot doirasi, asosiy metodlari xususida tushunchaga ega bo'lishlariga erishish. | |
| <p align="center">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Dunyoning geosiyosiy manzarasi xususida tushuncha xosil qilish ko'masini shakllantirish; • Geosiyosat fanini shakllanishini ob'ektiv zaruriyat ekanligini, uning jamiyat xayotidagi o'rnini tushuntirib berish; • Geosiyosatning asosiy maqsad va vazifalarini, metodlarini, ta'sir etish yo'llari bo'yicha o'z fikrini shakllantirish va bildirish jarayonlarini tashkil qilish; | <p align="center">O'quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Dunyoning geosiyosiy manzarasi, « Geosiyosat asoslari» ning kategoriyalari, qonunlari, metodlari va funksiyalari taxdid ilishadi. • Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari tushuntirib berishadi • Geosiyosat asoslarining asosiy qonuniyatlari yoritib berishadi. • Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari taxlil qilishadi. • Geosiyosatning asosiy funksiyalari: gnoseologik funktsiya; prognoz qilish funktsiyasi; boshqaruv funktsiyasi; mafkuraviy funktsiya va ularning axamiyatini yoritishadi |
| Ta'lim berish usullari | Muammoli usul, munozara, suhbat, aqliy hujum, tezkor-so'rov |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, guruhlarda ishlash; yangi ped.texnologiyalari |
| Ta'lim berish vositalari | Ma'ruza matni, o'quv materiallari, marker, skotch, qog'oz |
| Ta'lim berish sharoiti | Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |
| Monitoring va baholash | Og'zaki nazorat: savol-javob |

“Geosiyosat asoslari» ning kategoriyalari, qonunlari, metodlari va funktsiyalari”
mavzusida seminar mashg‘ulotining

TEXNOLOGIK XARITASI

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni: | |
|--|--|--|
| | O‘qituvchi: | |
| 1-bosqich. Kirish (10 min) | 1.1. Seminar mavzusini e‘lon qiladi, darsning tashkil etilish texnologiyasi, uning maqsadi, dars mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalarni ma‘lum qiladi. 1.2. “Aqliy hujum” usulidan foydalangan holda talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi. (1-ilova). | 1.1 Eshitadi, yozib oladi, savollarga javob beradi, darsga ijodiy yondoshishga kirishadi. |
| 2-bosqich. Asosiy qism (60 min) | 2.1. Talabalarni kichik guruhlariga bo‘lib chiqadi, kichik guruhlarda ishlash qoidasini tushuntiradi (2-ilova). 2.2. Har bir kichik guruhga ijodiy ishlashga topshiriq va yozma savollarni taqdim etadi.(3-ilova) hamda “Quyosh shu’lasi” texnikasi asosida ishlash tartibini tushuntiradi (4-ilova) Kutilayotgan natijalarni bayon qiladi. 2.3. Ijodiy ishlash jarayonida o‘quv materiallari (ma‘ruzalar matni, o‘quv qo‘llanma)dan foydalanishga ruxsat beradi. Ish boshlashni taklif etib, vaqtni belgilaydi. 2.4. Vaqt tugagach, taqdimotni boshlashni e‘lon qiladi. 2.5. Talabalar javobini sharxlaydi, aniqlik kiritadi, to‘ldirib boradi. 2.6. Talabalar tomonidan tayyorlangan savollarni, ularga berilayotgan javoblarni tinglab, ularni sharxlaydi. 2.7. Guruxlar faoliyatini baxolaydi (5-ilova) “Mulohazali savol muallifi” bo‘lgan guruh a‘zolarini rag‘batlantiradi. | 2.1.O‘quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Kichik guruh a‘zolari birga-likda “Quyosh shu’lasi” xarita-sini to‘zib, hamkorlikda savol-larga javob topadilar. 2.3.Guruh a‘zolari individual javob berib, bir-birini to‘ldiradi. 2.4.Savollar to‘zib, “Muloha-zali savol mual-lifi” bo‘lishga harakat qilishadi. 2.5.Ikkinchi kichik guruh a‘zolari tomonidan berilgan savollarga javob beradilar, o‘qituv-chining izohini tinglaydilar, o‘z bilimlarini to‘l-dirib boradilar. |
| 3-bosqich: Yakuniy qism: (10 min) | 3.1.Mashg‘ulotga yakun yasaydi va talabalarni baholaydi, ularni rag‘batlantiradi. 3.2. “Millatning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi” mavzusida referat yozishni vazifa qilib beradi | 3.1.Tinglaydi, aniqlashtiradi. 3.2.Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladi. |

Tayanch tushunchalar: «Geosiyosat», ob‘ekt, xartlend, rimlend, kommunistik mafkura, mafkuraviy tazyiq, g‘oyaviy tahdid, mafkuraviy tahdid, milliylik, prognoz, mafkuraviy funktsiya, .

O'quv topshiriqlari

1-ilova

Akliy xujum usulida kullaniladigan savollar

1. Dunyoning geosiyosiy manzarasini qanday tushunasiz?
2. Geosiyosatning asosiy funksiyalari?

2-ilova:

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruh a'zolarining har biri:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari lozim;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- Guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutulamiz" qoidasini ya'shi bilishlari lozim

3-ilova:


1-guruh uchun savollar:

1. Geosiyosat nima?
2. Geosiyosat fanining metodlarini izoxlang
3. Geosiyosatning asosiy kategoriyalarini izoxlang?

2-guruh uchun savollar:

1. Geosiyosat fanining predmeti va asosiy vazifalarini yoritib bering
2. Geosiyosatning funksiyalarini izoxlang
3. Geosiyosatning asosiy kategoriyalarini izoxlang

“Quyosh shu’lasi” texnikasi



Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (ball)

| Guruh | 1-topshiriq (Idrok xaritasi) | 2-topshiriq (Savollarga javoblar) | 3-topshiriq (Mulohazali savol) | Ballar yig‘indisi |
|-------|---------------------------------|---|-----------------------------------|-------------------|
| | (2,0) | (2,0) | (1,0) | (5,0) |
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |

SEMINAR MASHG‘ULOTLARNING TA‘LIM TEXNOLOGIYASI

| | |
|--------------|---|
| mavzu | « GEOSIYOSAT ASOSLARI » NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKTSIYALARI |
|--------------|---|

1.1. Ta‘lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|---|
| <i>Mashg‘ulot vaqti-2 soat</i> | Talabalar soni: 25 – 65 gacha |
| <i>Mashg‘ulot shakli</i> | Seminar mashg‘uloti |
| <i>Seminar mashg‘uloti rejasi</i> | 1.Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari. 2.Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari. 3.Geosiyosatning asosiy funktsiyalari. |
| <p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Talabalarga Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma‘lumot berish.</p> | |
| <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> Talabalarga Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari haqida tushuncha berish</p> | <p><i>O‘quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma‘lumotga ega bo‘lishadi. |
| <i>Ta‘lim berish usullari</i> | “Tarmoqlash”, “Qanday”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalarni qo‘llagan holda gurux bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish |
| <i>Ta‘lim berish shakllari</i> | Jamoaviy, guruxlarda |
| <i>Ta‘lim berish vositalari</i> | Ma‘ruza matni, o‘quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar. |
| <i>Ta‘lim berish sharoiti</i> | Auditoriya |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og‘zaki nazorat: savol-javob |

GEOSIYOSAT ASOSLARI » NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKTSIYALARI

Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|--|---|--|
| | <i>O'qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Mavzu, rejani e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi |
| | 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi | Yozib oladi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Mavzu bo'yicha «Qanday» usulidan foydalangan xolda talabalarga savol bilan murojaat qiladi (2-ilova) | Yozadi, savolga javob beradi. |
| | 2.2. Galdagi vazifa «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. «FSMU» texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (3-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi. | Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydilar |
| | 3.2. Talabalarning olgan baholarini e'lon qilinadi | Yozib oladi |
| | 3.3.Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va «Insert» usulidan foydalanib jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (8-ilova) | «Insert» usulida jadvalni to'ldiradilar |

MAVZU: GEOSIYOSAT ASOSLARI » NING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKTSIYALARI

Reja.

1. Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari.
2. Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari.
3. Geosiyosatning asosiy funktsiyalari.


O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma'lumot berish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari, Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari, Geosiyosatning asosiy funktsiyalari xususida ma'lumotga ega bo'lishadi

1-o'quv topshiriq

«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va "Qanday" savoli orqali muammo hal qilinadi.



2-o'quv topshiriq
FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

| Savol | Geografik tizimlar rivoji, amal kilishi bilan bog'liq qonuniyatlar |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

4-ilova

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

